

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI

“BADIY GRAFIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

Raxmatullayev Abror Zikriya o'g'li

**XALQ AMALIY SAN'ATINI O'QITISHDA FANLARARO
BOG'LANISH**

5211200-Amaliy sanat yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar o'qituvchi:

B.Xujamurodov

Bitiruv malakaviy ishi “Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil “___” _____ dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №___).

Kafedra mudiri:

katta o'qituvchi D. Irgashov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2014 yil “___” iyundagi majlisida himoya qilindi va ___ ball bilan baholandi (bayonnoma №___).

Ya DAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND-2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. Xalq amaliy san'atini o'qitishda fanlararo bog'lanish	7
1.1 Xalq amaliy san'ati haqida ma'lumotlar	7
1.2 Xalq amaliy san'atining zamonaviy jihatlari	14
1.3. Xalq amaliy san'atining hunarmandchilik bilan bog'liqligi	15
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	18
II bob Xalq amaliy san'atni o'qitishda fanlararo bog'lanishning shakl va usullari.	19
2.1 Xalq amaliy san'atini o'rganishda o'zaro yaqin fanlar	19
2.2 Amaliy san'atda rangtasvir kompozitsiyasini o'qitish	28
2.3 Amaliy san'atni o'qitishda fanlararo bog'lanishni o'rgatish metodikasi	31
Umumiy xulosa	49
Taklif va tavsiyalar	50
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	51
Ilovalar	52

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, fanlarni o'qitish-o'rgatish ishlarida fanlararo bog'lanish va aloqalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu singari xalq amaliy san'ati darslarini ham boshqa fanlarga bog'lab o'tish samarali natijalar beradi hamda bu bog'lanish dars samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xalq amaliy san'ati kasb-hunar ta'limi fanlari orasida o'quvchilarni ma'naviy sog'lom, komil insonlar bo'lib yetishishlarida keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Kollejlarda amaliy san'at predmeti o'quvchilarni rasm chizish amaliy buyumlar yasash, bezatishning elementar asoslari bilan tanishtirish va badiiy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari //xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. nomli asarida "Ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizasiyasi qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi" degan edi.

O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standarti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2002 yil 21 fevral 54-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan standart kasb-hunar va oliy ta'limga ham joriy etilmoqda. Shu kabi umumiy o'rta ta'lim maktablari davlat ta'lim standartlari ham 1999 yil 16 avgustda hamma ta'lim muassasalariga joriy qilingan edi. Amaliy san'at masallari rassomchilik, pedagogika kollejlarda asosiy qismini egallaydi.

Mavzuning ishlanganligi. Fanlararo bog'lanish masalalarida tasviriy va amaliy san'at fanini oqitish jarayoni doimo dolzarbligicha qolmoqda. Chunki kollejlarning amaliy san'atni o'qitishda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlari xar doim xam qaysidir bir fan bilan bog'anib boradi. Maktab va kollejlarda tasviriy san'at, xalq amaliy san'atini o'qitish va uning metodikasi masallari bilan ko'plab olimlar shug'ullanib kelishgan.

Shulardan professor R.Xasanov, S.Bulatov, M.Nabiyev, B.Oripov, A.Turdialiyev, B.Azimova, B.Boymetov, O. Hudayorova, Q. Qosimov,

D.Irgashevlar tasviriy san'at ta'limining metodik yo'nalishini amaliy san'at bilan ta'lim tarbiya birligini yechimi bo'yicha ishlar olib borgan. Tasviriy san'at va amaliy san'at rasm chizish va uni o'qitish masalalari bo'yicha rus rassom va metodistlaridan professor N.Kuzin, R.I.Rastovsev, N.Yusov, B.Neminskiy, N.Shpikolovalarning ko'plab asarlari mavjud. Shuningdek, kasb hunar ta'limiga oid masalalar bilan olimlardan B.Boymetov, A.Abdurasulov, N.Tolipov, B.Oripov, A.Turdialiyev kabilar metodika bo'yicha darsliklari metodik ishlanmalar yaratdilar. Shunday bo'lsada mustaqilligimizdan so'ng yaratilgan amaliy san'atning boshqa fanlar bilan bog'liqligi asosida alohida darslik chop etilgan emas. Kasb-hunar ta'limida fanlararo bog'lanishlar masalalari bo'yicha xali ko'plab muammolar bor. Kollej o'quvchilari uchun ham rasm chizish qiziqib ishlaydigan sohasi. Bunda predmetlar aro bog'langan holda rasm chizish dars soatlarini olib borilsa yaxshi bo'ladi. Buni kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari olib borishadi va ularning asosiy qismi nazariy hamda amaliy ishlarni darslarda tushuntirishlari bilangina cheklanib qoladi. Kollej o'quvchilari mustaqil bajarishi uchun yetarli adabiyotlar topa olmaydilar. Xalq amaliy san'atini o'qitishda fanlar bilan bog'lab olib borish mumkinligini bilamiz. Ammo bu kishining qator xususistlariga ham bog'liqdir. Eng avvalo amaliy san'atni o'rgatuvchi kishida istak bo'lishi hamda unga qiziqishi lozim. Shuningdek, kerakli adabiyotlarni o'qib osondan qiyinga borish tamoyiliga amal qilgan holda batartiblik bilan mashq qilish zarur.

Buning uchun barcha amaliy san'atga doir fanlar bilan boshqa fanlarning bog'liqligiga ham e'tibor qaratish lozim.

Demak, rasm chizish, naqshlar chizish, amaliy san'at buyumlarini o'rganish davrida bolalar qunt bilan, ongli ravishda ko'rsatilgan adabiyotlarni, o'qib rasm chizish sohasida mashqlar bajrib borilsa sekin-asta savodli rasm chizishga, amaliyotda undan foydalana olish, o'rganish mumkinligini vaqt ko'rsatadi. Shu kabi predmetlar bilan bog'langan holda tarif etilsa yanada yaxshiroq bo'ladi.

Mavzu kafedraning ilmiy ishlar rejalariga mos keladi va u metodik jihatdan talabga to'g'ri.

Shularni hisobga olib men diplom ishimi "**Xalq amaliy san'atini o'qitishda fanlararo bog'lanish**" deb belgiladim.

Maqsadi: Kollejlarning tasviriy va amaliy san'at darslarida predmetlararo bog'lanish jarayonini takomillashtirish.

Vazifalari: Xalq amaliy san'ati haqida ma'lumotlar berish va o'qitishda fanlararo bog'lanishni o'rganish.

Xalq amaliy san'atining tarixiy taraqqiyotini o'rganish.

Xalq amaliy san'atining zamonaviy tomonlarini va ahamiyatini o'ritish.

Xalq amaliy san'atining hunarmandchilik bilan bog'liqligini keltirish.

Xalq amaliy san'atini o'qitishda turli usullarida dars ishlanmalarini tayyorlash.

Obekti: Kasb-hunar kollejlarining tasviriy va amaliy san'at darslari jarayoni.

Predmeti: kasb-hunar kollejlarida tasviriy va amaliy san'at darslari.

Metodlari: nazariy tahlil, kuzatish, dars o'tish va o'rganish.

Ilmiy faraz: Agar:

- xalq amaliy san'atini o'qitishda fanlararo bog'lanish haqida ma'lumotlar berilsa.

- xalq amaliy san'atini o'qitishda fanlararo bog'lanishning taraqqiyoti o'rganilsa;

- amaliy san'at darslarining ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini hisobga olinsa;

- amaliy san'at darslarining hunarmandchilik bilan bog'liqligini anglansa;

- amaliy san'at darslarida fanlararo bog'lanishdan doimiy foydalanib ish yuritilsa;

- amaliy san'at darslarini olib borishda turli dars usullaridan foydalanilsa.

Amaliy ahamiyati: Kasb-xunar kollejlarda tasviriy va amaliy san'at darslarini olib borishga fanlarning bog'lanib borishini amaliy jihatdan uslubiy ko'rsatib utilganligi. Ishning metodikasidan o'qituvchilar, metodistlar, o'quvchilar amaliyot davrlarida foydalanishlari mumkin.

1. **Nazariy ahamiyati:** - amaliy san'at darslari jarayonida uning tarixiy taraqqiyoti yoritib berilgani.

- amaliy san'at darslarining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatining hisobga olinganligi.

- amaliy san'at darslarining o'ziga xosligi, belgilanishi va hunarmandchilik bilan bog'liqligi.

- amaliy san'at darslarining turli yo'llari va usullari ko'rsatib o'tilganligi.

Yangiligi: kasb-hunar kollejlarning tasviriy va amaliy san'at darslarida fanlararo bog'lanishga doir ishlarni takomillashtirish va dars olib borishning ishlanmalarini tayyorlanganligi.

Tajriba – sinov ishlari. Biz tajriba-sinov ishlarini Samarkand shaxar qurilish va milliy xunarmandchilik kasb-xunar kollejida amaliyot bilan birga olib bordik. Olingan natijalarni ishning asosiy qismida darslarning ishlanmalari sifatida keltirib utganmiz.

Qo'llanilish soxasi. Olingan natijalar hamda ularning dars ishlanmalaridan tasviriy va amaliy san'at darslari jarayonida qo'llash mumkin.

Tuzilishi: Kirish, ikki bob, besh fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib 56 betni tashkil etadi.

I bob. Xalq amaliy san'atini o'qitishda fanlararo bog'lanish.

1.1 Xalq amaliy san'ati haqida ma'lumotlar.

Xalq amaliy san'ati – bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda ahamiyatga ega bulgan badiiy buyumlar tayyorlashga asoslangan. Kundalik turmush ashyolari hisoblangan (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat kurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoklar va b.)ni badiiy ishlash bilan bog'liq, ijodiy mehnat sohaslarini ham o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari kuz bilan kurish, his etish va anglashga muljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi. Ayni paytda o'zining kurinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy xolati, kayfiyatiga ta'sir etadi. Barcha bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmatini bulgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etiladi. Amaliy san'at buyumlariga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, u estetik dunyoqarash uchun faol vositalardir. Amaliy san'atda narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi:

- 1) narsalarning shakli oddiy, jun buyumlarga bezak ishlab badiiy qimmatini oshiriladi;
- 2) amaliy san'at buyumlari shakli chiroyli qilib ishlanadi. Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o'ynaydi.

Shu kabi xom ashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta'sirchan mazmunli shakllar ko'pincha taxlildan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bulayotgan bezak uning obraz tuzilishiga xam sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim xollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qullaniladi. Ba'zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, tur; gilam, mayu gullari va h.k.). Amaliy san'at asarining uyg'unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining

yagonaligida, shakl va bezakning uzaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon buladi. Bezakning shakl, tasvirning buyum kulami va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlashtirishning zarurligi tasviriy bulaklarni uzgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini uxshatib yaratishga olib keladi.

19-asrning 2-yarmidan ilmiy adabiyotlarda amaliy san'at asarlari foydalanilgan xom ashyosi (yog'och, sopol, ganch, metall, suyak va b.) va ijro usuli (buyash, o'yib-kesib ishlash, kuyish, kashta tikish, tuqish va b.)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o'z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog'lanishi (badiiy san'at)da zamin yaratdi.

Amaliy san'at asarlari yaratilgan davrining maishiy qatlamiga mos mahalliy va milliy xususiyatlarni, ijtimoiy guruhlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan uning moddiy madaniyatini ifoda etadi. Asrlar mobaynida xalq ijodiyotining sohasi sifatida amaliy bezak san'ati yuzaga kelgan. Uning rivojida xalq, yashagan joyning jug'rofiy sharoiti, xalqining mashg'uloti, etnik va milliy jihatlari, turmush tarzi, madaniy darajasi, ko'shni xalklar bilan aloqalari va boshqalar muhim rol o'ynagan. Kulolchilikka yaraydigan tuproq mavjud joylarda kulollik, chorvachilik rivoj topgan yerlarda jundan mato tuqish, muynaduzlik, kigiz bosish, gilamchilik va shu kabilar rivojlangan, amaliy san'at asarlarining ma'lum joyga xos uslublari shakllangan.

O'zbekiston hududidan mezolit davriga oid qadimgi san'at yodgorliklari topilgan. Neolit davri sopol idishlari qulda yasaliib, chiziqcha, nuqta va ilonizi tasvirlar (tirnoq; qul bilan chizib) tushirib bezatilgan. Farg'ona vodiysidan milloddan avvalgi 3-ming yillik oxiri - 2-ming yillikka oid jez davri quyma badiiy buyumlari (jez va kumush buyumlar xazinasini) topilgan. Sopol idishlarga keyinchalik handasiy bezaklar ishlana boshlangan. Farg'ona vodiysi, Surxondaryo viloyati utroq dehqon aholisi idishlari shu davrda uchburchak, rombsimon yoki kataksimon qizil-qora chiziqchalar bilan bezalgan; Amudaryo buyi vohasidan topilgan buyumlarda ham shunday tasvirlar jigarrang, oq, zaminga chizilgan. Jez davri dasht qabilalari foydalangan sopol idishlardagi uchburchak, ilonizi, archasimon yoki yo'l-yo'l tasvirlar qolip bilan bosilgan (Xorazmdagi Tozabogyon madaniyati, Buxoro vohasidagi Qizilqir qabristoni). Milloddan avvalgi 4-2-

asrlar yodgorliklariga oid sopol idish va haykalchalarga hayvonlar shakli ishlangan Qovunchi madaniyati idish dastasidagi hayvon shakli; Afrosiyob va Xolchayondan topilgan taqinchoklardagi burtma tasvirlar). Ilk o'rta asr (5-8- asrlar) amaliy bezak san'ati Sug'd, Toxariston, Xorazm va Farg'onadagi davlatlar madaniyati bilan bog'liq, ravishda rivojlangan. Ganch o'ymakorligi (Samarkand, Varaxsha) va boshqa o'ymakorligi (Surxondaryo viloyati)da naqshga mavzuli mujassamotlar aralashtirib berilgan, yassi burtma bezaklar urnini hajmli shakllar egallagan. Xandasiy va uslublashtirilgan o'simliksimon naqsh asoslari yanada mukammallashtirilgan. Afrosiyob, Bolaliktepa va Varaxsha rasmlarida tasvirlangan rang-barang kiyimlar shu davrda badiiy to'qimachilik taraqqiy etganidan darak beradi. Surxondaryo viloyatining Termiz sh. yaqinida joylashgan qabristondan, Pop tumani Munchoqtepa manzilgohidan 4-6-asrlarga oid qadimiy ajoyib kiyimlarning o'ziga xos namunalari topilgan, bundan qadimiy farg'onaliklar kiyimi ancha murakkab kilib tikilganligi ma'lum bo'ladi. Samarqand viloyatidan kadimiy mahsi, Farg'ona vodiysidan qolip va charm kesadigan maxsus pichoq topilishi O'zbekistonda, umuman butun Turkistonda deyarli bir vaqtda, ya'ni 5-6-asrlarda bu oyoq kiyimning urf bulganini kursatadi. Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo va Kashqadaryoda pichoqchilikning qadim markazlari bo'lgan. Pichoqlar faqat uy-ro'zg'or buyumi emas, balki xarbiy qurol, hunarmandlik asbobi sifatida kullanilib kelingan. 6-12-asrlarga oid pichoq namunalari metall tarkibining, pichoq yasash usuli va bezaklarining uzgarib, taraqqiy eta borganini tasdiklaydi. Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarda (15-17-asrlar) yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xil namunalari tasvirlangan. 7-9-asrlarda to'qimachilik taraqqiy etgan, ip, ipak matolardan tashqari qimmatbaho parchalar ham ishlab chiqarilgan. O'simlik va handasiy naksh-bezaklariga boy, jonzodlar tasviri tushirilgan «zandonachi» matosi bizgacha sakdanib kelingan. Zandonachi matosining mujassamoti taksim usulida tushirilgan; bir me'yorda almashinib turgan turunj bezaklari ichiga bir juft qarama-qarshi turgan arslon, fil va boshqa hayvonlar tasviri joylashtirilgan.

5-10-asrlarda sopol buyumlarning maxsus turi - ostadonlar tayyorlash rivoj topdi.

Ostadonlarni bezashda tasviriy mavzulardan keng foydalanilgan: ajdodlar, homiyar va xudolar, parrandalar, shuningdek daraxt va boshqa o'simliklar uyma, burtma va boshqalar usullarda ishlangan. 6-10-asrlardan shisha idishlar kuplab ishlandi; kuzacha, kadahlar, siyoxdon, turli idishlar rangli (qizil, olcha rang, sariq, ko'k, yashil), rangsiz shishalardan tayyorlanib, burtma, bosma, chizma, qadama usullarda bezatilgan. Kuplab rang-barang shisha munchoklar ishlab chiqarilgan. Marmar qabr toshlari usti girix naqshlar bilan bezatilgan, yog'och va marmardan panjaralar ishlangan. Me'morlikda an'anaviy ganch, yog'och o'ymakorligi bilan bir qatorda g'isht qalab naqsh xosil qilish san'ati rivoj topdi. 12-asrlarda me'morlikda o'yma terrakotadan, sirlangan g'ishtdan foydalanildi, mahobatli binolarning devor, gumbazlari koshin bilan qoplab, bino ichi ganch o'ymakorligi, buyama naqshlar bilan bezatilgan.

Islom dini qaror topishi bilan amaliy san'atning turli sohalarida badiiy bezak asarlari, mavxum naksh-bezaklar yaratishga intilish kuchaydi. 9-10-asrlar me'moriy naqqoshlikda handasiy (yulduzsimon shakllarning turli kurinishlari) va arab yozuvlari ishlash yetakchi o'rinda turgan. Girix san'ati yuksaldi. Rangli sirning ixtiro qilinishi (8-asr) bilan badiiy kulollik taraqqiy etdi. Samarkand, Toshkent, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda sopol idishlarga naqsh bezaklar ishlab, buyab, ustidan sirlash usuli uzlashtirildi. Dastlab sodda yashil bezak ustidan xira sir qoplangan yoki 2-3 xil rangda sir dog'lari oqchizilgan idishlar ishlangan bulsa, 10-11-asrlarda idishning oq yoki g'isht rang qizil zaminiga rangli angob bilan aniq naqsh mujassamoti tushirilib, ustidan tiniq (shaffof) qurg'oshin sir qoplangan. Shu davr kulolli (ayniksa Afrosiyob idishlari)ga bezak bilan badiiy shaklning bir-biriga mos ravishda ishlanishi xosdir, keskin rangli bezakning aniq ishlanishi va tasvirlarning mahalliyli (kufiy) yozuvlari, novda, lola, anor, tok barglari tasvirlanishi) bilan ajralib turadi. Keyingi davr idishlariga uslublashtirilgan o'simliksimon naqshlar, yozuvlar va ba'zi hayvonlar shakli tushirilgan: yashil, yorqin havo-rang sirli idishlar, sirsiz bosma usulda tasvir tushirilgan, naqshli sopol idishlar ko'p ishlangan. 12- asrdan koshindan nozik yupqa idishlar ko'plab ishlana boshlandi.

Badiiy metall buyumlar o'rta asr uslubida yaratilgan. Idishlar (kuza, qozoncha,

shamdon va boshqalar) bronzadan yasalib, hoshiya va turunj naqshlar bilan bezatilgan, yozuvlar uslublashtirilgan o'simliksimon naqshlar bilan, ba'zan qo'sh va hayvonlar tasvirlari ham aralashtirilgan, chizma, kandakori va boshqa usullarda ishlov berilgan. Xuja Ahmad Yassaviy maqbarasida saqlangan ulkan qozon (1390) bezaklari, o'yib naqshlangan eshik (1397), kumush qadab nafis ishlangan shamdonlar usha davr amaliy san'atning nodir namunalari. Shishasozlik (turli-tuman rangli qadah, piyola, likobcha va kuzachalar) va badiiy tuqimachilik rivojlangan. 13-14-asrlarda mug'ullar istilosi va undan keyingi davrlarda badiiy sopol idishlar mayda o'simlik va chizma naqshlar bilan bezalgan; yashil-qora va feruza-havorang buyoqlar oq angob ustiga tushirilgan, ustidan rangsiz yoki shaffof sir bilan qoplangan.

Amir Temur va Temuriylar davrida badiiy hunarmandlik yanada ravnaq topdi; nafis matolar, gulli kashtalar, zeb-ziynat buyumlari, badiiy bezatilgan kurollar, ot abzallari, idishlar ishlab chiqarilgan. Registon, Shohizinda, Oqsaroy kabi yirik me'moriy ansambllar yaratilib, bino tarzi rang-barang koshin va parchinlar bilan bezatilgan, bino ichi xalli naqsh va buyama naqshlar bilan, 15-asrning 2-yarmidan tilla xalli buftma «kunda» naqsh bilan bezatilgan. Yozma manbalarda Amir Temur saroylariga mavzuli tasvirlar, buyama naqshlar ishlanganligi qayd kilingan.

Shayboniylar xukmronligi (1500-1601) va Ashtarxoniylar (1601-1753) davrida O'zbekiston xududida tinimsiz urushlar bulib turgan. Shuning uchun ham badiiy hunarmandlik poytaxt - Buxoro va qisman boshqa yirik shaxarlarda - Samarqand, Toshkent, Xivada to'plangan, xattotlik, kitobat san'ati, muqovasozlik, kitob miniatyurasi, qulyozmalar yaratish san'ati rivojlangan. Ustalar qul yozma kitob saxifalarini zarxal berib, nozik usimlik va xandasiy naqshlar bilan tuldirib bezashgan. O'zbekistonning barcha markazlarida ip, ipak, jun matolar (atlas, zandonachi, baxmal, buz, shoxi, olacha, parcha) va tayyor buyumlar (rumol, dasturxon, salla, belbog', kiyik va boshqalar) ishlab chiqarilgan. 18-asrlarda tuqimachilik markazlari Buxoro, Marg'ilon, Andijon, Samarqand, Xiva, Toshkentda joylashgan. Shaxrisabzda popur (popop) chokli suzanalar, Buxoro, Samarqand, Toshkentda xon va ulamolar uchun zarduzi buyumlar tayyorlangan. 18-19-asrlarda maxobatli binolarni, ayniqsa ichki

qismini koshin, tosh, ganch, yog'och o'ymakorligi bilan bezatish davom etdi. Kulollik va kandakorlik san'ati yuksak darajaga kutarildi. Kandakorlikning Buxoro, Qarshi, Xiva, Shaxrisabz uslublari vujudga keldi (Quqon kandakorlik maktabi, Buxoro kandakorlik maktabi). Amaliy bezak san'atining boshqa turlarining maxalliy uslublari shakllandi.

Yozma manbalardan 18-asrda iroqi duppilar kuplab tikilgani ma'lum. 19-asr 1-yarmi va o'rtalariga oid kashtalarda (Buxoro, Samarkand, Nurota) chamanzorlar tasvirlangan. Shaxrisabzda «abr» bezakli matolar tuqila boshlangan.

19-asrda Toshkentda gulqsha, palak singari yirik kashtali badiiy buyumlar tikilgan.

Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda, Xorazm, Farg'ona vodiysida kunchilik qadimdan rivojlangan. Turli xil kun maxsulotlari: charm, xrom, amirkon va boshqalardan poyabzal, telpak, ustki kiyim, ot-ulov abzallari, qayish, qin kabi buyumlar tayyorlangan. Teriga badiiy ishlov berish rivojlangan; dastlab oshlangan, ustidan pardoziqlangan, ba'zilarini buyalgan. Buyumlar usti murakkab usulida rangli charm, baxmal parchalari quyib, popuklar, qung'iroqchalar qushib tikilib buyumning badiiyligi oshirilgan. Ayniqsa qog'oz-xujjatlar solib yuriladigan juzdon (juzgilar)ga turunj naqshlari bosma usulda tushirilib, xoshiyasiga nozik usimliksimon nakshlar berib bezatilgan.

18-19-asrlar zargarlari kadimiy zargarlik san'ati an'analarini davom ettirishdi. Yozma manbalarga kura 18-asr zargarlari oltin va kumushga qimmat-baxo toshlar qadab toj va kamarlar, qurollar, ot abzallari, zeb-ziynat buyumlari ishlagan. 19-asr zargarlari zumrad, durru marvarid, yoqut, feruza, aqiq, sadaf kabi qimmatbaxo toshlarni oltin va kumushga qadab serjilo, jozibali zeb-ziynat buyumlari yaratishgan. Ularga bolg'alab (zarb berib), xallab uyib, burttirib naqsh yasab, bosib (siqib), qoliplash usullarida ishlov berilgan.

19 asr o'rtalarida Rishton qishlogi kulollari elga mashxur bo'ldi. Shu davrda Abdujalil, Tuxta, Abdulla kabi ustalar ishlab o'ziga xos Rishton kulollik uslubini yaratishdi. Rishton sopol idishlarining oq zaminiga kuk buyoq bilan bezak chizilgan. Bezak mujassamoti doira shaklida tushirilib, idishning tubi va chetlari ajratilgan. Asosiy bezagi yirik serbarg gullardan iborat bo'lib, orasi nozik pechak singari novdalar bilan

tuldirilgan. Tursimon xoshiya naqshlar orasiga an'anaviy kuzchalar quyilgan. Rishton buyumlari qatori Vardonze, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Shaxrisabz, Toshkent kulollarining buyumlari o'ziga xos shakli, bezak mujassamotlari, naqshlari b-n ajralib turgan.

19 asr boshlarida O'zbekistan amaliy bezak san'ati qadim an'analarga asoslangan xolda, yangi zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirildi. Aksariyat badiiy hunarmandlik soxalari tiklandi. Farg'ona an'anaviy tukimachilik san'ati urganilib, abr gulli kiyimli ipak matolar, Buxoro yirik gulli matolaridan bino ichini bezaydigan badiiy buyumlar: deraza-eshik pardalar, choyshablar, dasturxonlar ishlab chiqarildi. An'anaviy chitgarlik, gilamchilik va palos tuqishda mavzuli tasvirlar berishga, kishilar siymosini yaratishga xarakat kuchaydi. Kandakori buyumlarga ham tasviriy bezaklar berish rasm bo'ldi. 19-asr an'analarini kashtachi K. Musajonov, opa-singil Rajabovalar (Chust «to'y» duppilari, Shaxrisabz «iroqi»larini yaratishgan), kulol T.Miraliyev, U.Shermatov, M.Ismoilov va boshqalar davom ettirdi. Zargarlik buyumlari shakl jixatdan ancha soddalashtirilsa ham qadimiy an'anaviy usullarda ishlandi. 30-yillar o'rtalaridan sanoatda badiiy matolar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Toshkent tuqimachilik kombinati satin, chit, urushdan keyingi yillarda Marg'ilon shoyi tuqish kombinati sun'iy va ipak matolari ishlab chiqara boshladi.

60-70- yillarda Marg'ilon «Atlas» birlashmasi, Namangan shoyi tuqish fabrikasi abr gulli ipak matolar chiqardi. Taqsim usulida yirik gulli qilib ishlangan «arabi» xilidagi, sidirga va mayda gulli «terma» paloslar, zarduzi duppi, nimcha, yirik namoyonlar, suzana, palak, gulkurpa va turli kiyiklar, mayda xaykaltaroshlikda an'anaviy sopol ushpulaklar qatori beg'ybop hazil ruhi aks etgan xaykalchalar yaratildi.

Amaliy san'at so'nggi 80-90-yillar ichida qo'yidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlandi: 20 dan ortiq xalq hunarmandligini o'z ichiga olgan xalq amaliy san'at; yengil (chinni buyumlar, badiiy matolar) va mahalliy (sopol, yog'och buyumlar, gilamchilik, kashtachilik, zardo'zlik va boshqalar) sanoatni o'z ichiga olgan badiiy sanoat; ko'rgazma, interyer va manzarali kulollik buyumlari, gobelen, shisha, chinni va zargarlik san'atida an'anaviy bulmagan buyumlar yaratuvchi rassomlik ijodi bilan

bog'liq, malakali yakka tartibdagi mualliflik bezak san'ati. Bunday xalq amaliy san'atining rivojlanish bosqichidan biz turli ma'ruzalar, seminar-treninglarni o'tkazishda kollej o'qituvchilari bilan bo'ladigan mashg'ulotlarda foydalanamiz.

1.2 Xalq amaliy san'atining zamonaviy jihatlari.

Amaliy san'at davrlar o'tishi bilan yangicha tus oladi. Bu ayni xalq amaliy san'atini rivojlantirish, uning unutilgan turlarini qayta tiklash va taraqqiy ettirishda «Usto» birlashmasi muhim rol o'ynadi. Kulollik, kandakorlik, tosh, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, zargarlik san'ati, zardo'zlik, gilamchilik va kigizchilik, lok minatyurasi, badiiy tuqimachilik, nosqovoq, tuqima ro'zg'or buyumlari, chinni, shisha buyumlar tayyorlash va boshqalar. Amaliy san'at turlari rivojlanmoqda. Ganch o'ymakorligini me'moriy bezaklarda qullash bu turning barcha maktablari an'alarini rivojlantirishga e'tiborni oshirdi. Ustalar turli maktab an'alarini uyg'unlashtirib, o'ta ehtiyotkorlik bilan me'moriy bezaklar mujassamotiga kirishmoqda. Badiiy xayotda ruy berayotgan jarayonning ta'siri hamda mahalliy badiiy an'alarining boyligi badiiy tajribada an'anaviy bo'lmagan yakka tartibdagi mualliflik bezak san'atini rivojlantirmoqda. Badiiy tuqimachilik, chinni, shisha, kulollik buyumlari ko'rgazmalarda tez-tez namoyish etilmoqda, ayni paytda shahar maishiy, me'moriy va boshqa muxitgina boyitish vositasiga aylanmoqda. Jumladan an'anaviy bulmagan kulollik, gobelen tayyorlash rivojlanmoqda, ustalarning ishlari ko'rgazmalarda namoyish etilmoqda. 70-yillardan kulollik asarlari Toshkent va boshqa shaharlardagi jamoat binolarini bezamoqda: Xalqlar dustligi saroyi, «Chorsu» mehmonxonasi, Toshkent metropoliteni bekatlari va boshqalar.

O'zbekiston respublikasi mustaqilligi amaliy san'atning barcha shakllarini rivojiga mustahkam zamin yaratdi. Shuningdek, O'zbekiston xududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur nafis san'atlar maktablarining noyob an'alarini avaylab asrash, urganish, boyitib borish, milliy tasviriy, amaliy, miniatyura san'atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, nafis san'atlar sohasidagi ilmiy

izlanishlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini barpo etish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, akademik ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etildi (1997 y. 23 yanvar qarori). «Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qullab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1997 yil 31 mart) qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atning ahamiyatini oshirish, qulda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'analarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad kursatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq an'anaviy amaliy san'atning yangidan tiklanishi va rivojlanishi har yili Navro'zda o'tkaziladigan Amaliy san'at asarlari ko'rgazmasida namoyon bo'lmoqda. Amaliy san'atning hamma sohalarida professional rassom, haykaltaroshlar o'rtasida hamkorliklar bo'lib turadi. Mana shularning asosida zamonaviy san'at turlari, yo'nalishlari ham paydo bo'ladi. Amaliy san'at o'zi doimo milliy bo'lib xalq udum va an'analari bilan bog'liq ravishda davr suradi.

O'zbekiston istiqlolga erishgach, xalqning qadimiy qadriyatlari asta-sekin tiklana boshladi. Mana shu xalq amaliy san'ati taraqqiyotni yangi bosqichlarga olib chiqdi.

1.3 Xalq amaliy san'atining hunarmandchilik bilan bog'liqligi.

Xalq amaliy san'ati hunarmandchilik rivoji bilan birga shakllandi va u ijtimoiy, iqtisodiy hayotdan san'at darajasiga ko'tarildi.

«Xalq hunarmandchiligi O'zbekiston qomusida shunday ta'riflangan – har bir moddiy mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turli maxsulotlar ishlab chiqarish. O'zbekiston ensklopediyasida shunday ta'riflangan hunarmandchilik – milliy-an'anaviy mayda tovarlar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi, shunday mahsulotlar tayyorlaydigan kasblarning umumiy nomi». Xalq hunarmandchiligi kishilik jamiyatining paydo bo'lishi va taraqqiyoti bilan vujudga kelib, dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqadi. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari,

mehnat vazifalari taqsimoti, tayyorlanadigan buyumlar xususiyatiga ko'ra hunarmandchilikning 3 yo'nalishi keng taraqqiy etdi.

1. Uy hunarmandchiligi;

2. Buyurtma bilan maxsus tayyorlaydigan hunarmandchilik;

3. Bozor uchun maxsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik. Umuman olganda hunarmandchilik yuqoridagi 3 yo'nalishda, turli sur'atda va kulamda taraqqiy etgan 200 dan ziyod yirik soxalari, turi mavjud bo'lgan, ammo, tarixiy taraqqiyot jarayonida, ehtiyoj, sharoit va imkoniyatga qarab, hozirda 150 dan ziyod tarmog'i sohasi mavjudligi ma'lumdir.

Hunarmandchilik turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador xolda takomillasha bordi. Turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nychilik, tikuvchilik, tuquvchilik, zargarlik, rixtagarlik, zardo'zlik, buyoqchilik, tunukaso'zlik va boshqalar) ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab masalan paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (masalan Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nychilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlik, ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik va boshqalar rivoj topgan.

Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslasha bordilar. Shaharlardagi mahallalar hunarmandlarning kasb-koriga qarab shakllangan (masalan 20-asrning boshlarida Toshkentda ko'nychilar, kulollar, egarchilar, beshikchilar, o'qchilar, kosiblar mahallalari bo'lgan). Ayrim maxalla, kvartal, shahar, o'lkalar hunarmandchilikning ma'lum mahsulotlari bilan shuxrat qozona boshladilar.

Hunarmandchilikda tovar-pul munosabatlariga kengroq va chuqurroq tortilganligi sari tabaqalashdi. Uddaburon va serharakat hunarmandlar boyib dastlabki kapital jamg'arilishi tufayli kapital sohibiga aylandi va ularning

ustaxonalari negizida kichik zavod va fabrikalar vujudga keldi, bu korxonalarda kambag'allashgan hunarmandlar yollanib ishlay boshladi. Natijada hunarmandchilikning rivoji bozor iqtisodiyotining kapitalistik shaklini yuzaga keltirdi.

Hunarmandchilik Yevropa shaharlarida sanoat rivojiga ham o'z hissasini qo'shdi (to'qish dastgohlari takomillashdi. 14-asr o'rtalarida Germaniyada domna pechlarining paydo bo'lishi metallurgiyada jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. 14-15-asrlarda o'qotar qurollar ishlab chiqarila boshlandi. Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari hunarmandchilik-ning keyingi taraqqiyotiga zarba berdi. Hunarmandchilikning ko'pgina sohaları tushkunlikka uchradi. Sanoat to'ntarilishi oqibatida tez va arzon ommaviy ishlab chiqarila boshlagan fabrika, zavod mahsulotlari hunarmandchilik mahsulotlarini bozordan siqib chiqardi.

Rivojlangan mamlakatlar, buyurtmalar va qimmatbaho baddiy buyumlar tayyorlaydigan hunarmandlik sohalarigina (tikuvchilik, etikdo'zlik gilamchilik, zargarlik, o'ymakorlik va boshqa) saqlanib qoldi.

20-asr boshlarida esa mashinalashgan ishlab chiqarish keng yo'lga quyilishi bilan hunarmandchilik mahsulotlarining tur tarkibi va ishlab chiqarish hajmi keskin kamaydi. 20-asr davomida va 21-asr boshlariga kelib yirik industrial ishlab chiqarish qaror topgan bo'lsada hunarmandchilikning mavqeyi saqlanib qoldi. Hunarmandchilik bozorda segmenti kichik bo'lganidan yirik ishlab chiqarish egallay olmaydigan talab individuallashgan o'z o'rni bor. Mini texnologiyaning paydo bo'lishi hunarmandlarga tovarlarni yakka tartibda va sifatli ishlab chiqarish imkonini beradi. Bunga milliy ust-boshlar, milliy cholg'u asboblari mayda asbob-uskunalar, turli yodgorlik buyumlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kiritish mumkin. Hozirgi biznes tarkibidagi yakka mehnat faoliyati va oilaviy korxonalardan iborat.

Birinchi bob bo'yicha xulosa.

Biz amaliy san'at turlari va tarixiy taraqqiyotga ahamiyat berib qaraydigan bo'lsak vaqt o'tishi bilan shu jamiyat rivoji uchun xizmat qilganligini ko'ramiz. Davrlar o'z o'tmishi davomida odam ehtiyojiga mos ishlab chiqarish bilan shakllangan amaliy san'atni biladi. Kishilar yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan bunday madaniyat estetik tarbiya shaklida namoyon bo'ladi. Endi estetik nafosat tushunchalari san'atning negiziga aylanib bordi. Xalq amaliy san'ati kunlik ehtiyoj sifatida uy-joylarni, idish-tovoqlarni, kiyim-kechaklarni taqinchoqlar sifatida ham xayotimizga kirib keldi. Lekin xalq hunarmandchiligi sifatida paydo bo'lgan narsalar amaliy san'at buyumiga ham aylana boshladi.

Kollej va maktablarda amaliy san'at dastri asosida bilimlar berish xalq hunarmandchiligining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki o'qitish jarayonida turli fanlar bog'liqligi bor. Har bir darsni mavzuga asosan tushuntirilar ekan xayotiy fanlar misolida fanlar bog'lanib ketadi. Mana shu bog'liqliklar o'quvchi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

II bob Xalq amaliy san'atni o'qitishda fanlararo bog'lanishning shakl va usullari.

2.1 Xalq amaliy san'atini o'rganishda o'zaro yaqin fanlar.

Xalq amaliy san'ati va tasviriy san'at (rasm). Xalq amaliy san'atida rasmlarning tutgan o'rni benihoya kattadir. Chunki birorta detal yoki buyumni yasashdan avval uning rasmi yoki eskizi chiziladi va o'quvchilarga kursatiladi. O'quvchilar xam ana shu rasmlarni daftariga ko'chirib chizib oladilar. O'quvchilar ana shu rasmlar orqali usha detal yoki buyum to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Ko'rinib turibdiki, bu yerda o'quvchilarda har xil rasmlar chizish malakasi ham shakllana boradi. Lekin tajribalardan ma'lumki, rasm chizish oson ish emas. Ko'pgina o'quvchilar rasm chizishga oid yetarli ma'lumot va malakaga ega bulmaganliklaridan bu ishni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli o'qituvchi mehnat darslarida o'quvchilarga buyumlarning texnik rasmi, eskizi, yakkol tasviri, perespektiva, rasmlarni chizishdagi ish ketma-ketligi shuningdek, ranglarni farqlash, ularni mutanosib joylashtirish va shu kabilar haqida ham tushuncha berib borishga to'g'ri keladi.

Xalq amaliy san'ati va chizmachilik. Xalq amaliy san'atini o'rganishni chizmachiliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xalq amaliy san'atini o'rganishda chizmachilik ham o'z o'rnida juda zarurdir. Chunki har qanday detalni yasash uning chizmasini o'qishdan boshlanadi va bu jarayonda o'quvchida bo'lajak buyum uning qismlari to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Binobarin, xalq amaliy san'atigi muhim ko'rgazmalardan biri bo'lgan texnologik va instruksion kartalarni chizish va ulardan foydalanish ham chizmalardan qanday foydalanishga bog'liqdir. Demak, o'quvchilarning amaliy faoliyati va tayyorlanadigan buyumlarning sifati ko'p jihatdan ularning chizmachilikka oid bilim va ko'nikmalarga ham bog'liq ekan. Biroq chizmachilik VIII sinfdan: boshlab o'qitiladi. Shu sababli o'qituvchi V sinfdan boshlab o'quvchilarga chizma, o'lcham, o'q chiziqlari, kesim, qirqim, chizmachilik asboblari va ulardan

foydalanish haqida ma'lumotlar berib borishi zarur. Bunda o'quvchilarning oldingi sinflarda shu soxaga oid olgan bilimlarini hisobga olgan xolda ish ko'rilishi lozim.

Xalq amaliy san'ati va amaliy grafika. Amaliy grafika - grafika turi. Grafika usulida ishlangan asarlar kundalik turmushda zarur bo'lgan qog'oz pul, lotereya biletlari, zayom qog'ozlari, pochta markalari, aksiyalar, konfet, papiros, yorliq qog'ozlari, pasport va guvohnomalar, turli korxonalarining mahsulotidagi belgi, har xil buyumlar solinadigan quticha, urov kog'ozlari va boshqalarni bezashda ishlatiladi. Grafika – o'zi yozaman, chizaman degan ma'noni beradi. Amaliy san'at turlarining hammasi ham oldiniga rasmi eskizi chizilishi lozim. Shunga xos amaliy grafikada ishlar bajarilaveradi.

Xalq amaliy san'ati va matematika. Xalq amaliy san'atini o'rganishda o'quvchilarga to'g'ri burchak, perpendikulyar va parallel chiziqlar, to'g'ri burchakli uchburchak va to'g'ri to'rtburchak kabi shakllarni hosil qilishga oid tushunchalar zarur bo'ladi. Bulardan tashqari, o'quvchilar simmetriya o'qi, shakllarni simmetrik joylashtirish, aylana, uni bo'laklarga bo'lish, urinmalar o'tkazish chizg'ich, go'nya, transportir, burchak o'lchagich, sirkul kabi turli asboblardan yordamida detal yoki buyumlarning burchaklarini, yoy markazlarini, to'g'ri va egri chiziqli boshqa o'lchamlarini aniqlashlariga to'g'ri keladi. Bunday paytlarda geometriyaga oid bo'lgan bilimlar zarur bo'ladi. Binobarin, maktab geometriya kursida chizish va o'lchash qurollaridan foydalanish, yuzalarni almashtirish kabi ishlarni bajarishda katta imkoniyatlar bor. Shuningdek, berilgan buyumlarning uzunligi, eni, balandligi, yuzasi, xajmi kabi turli o'lchamlarni aniqlash, qancha material, vaqt sarf bo'lishini hisoblash kabi ishlarni bajarishda esa arifmetikaga oid bilimlar zarurdir.

Xalq amaliy san'ati va amaliy geometriya - chizma geometriya fanining qonun-qoidalari asosida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini qurilishda, mashinasozlikda, me'morlik va boshqa sohalarida qullash bilan shug'ullanadigan fan soxasi. Umuman analitik geometriya, chizma geometriya, differensial geometriya, proyeksiyalash geometriyasi va boshqa sohalar qoidalarini ishlab

chiqarishning turli sohalarida qullash bilan shug'ullanadigan geometriyani amaliy geometriya deb yuritish mumkin.

Xalq amaliy san'ati va fizika. Xalq amaliy san'atida turli materiallarga ishlov berishdan oldin ularning fizikaviy xususiyatlarini bilish zarur. Moddaning tashqi ta'sir natijasida o'zining kimyoviy tarkibini saqlab qolish xususiyati uning fizik xossalari deyiladi. Bunday xossalarga materiallarning rangi, zichligi, eruvchanligi, issiqlikdan kengashi, issiqlik sig'imi, issiqlik va elektr utkazuvchanligi, magnitlanishi kabi xossalari kiradi. Masalan, metall qizdirilganda undan issiqlik yoki elektr toki utganda metallga magnit ta'sir ettirilganda uning tarkibi uzgarmaydi. Metallning fizik xossalari ularni bir-biridan farqlashda va ishlatishda juda qo'l keladi. Masalan, har qanday metall o'ziga xos yaltiroqlikka ega bo'lib, bu uning rangi deyiladi. Hamma metallning rangi bir xil emas. Masalan, mis qizil, qalay yaltiroq oq, rux kul rang, po'lat och ko'k rangda bo'ladi. Bu yerda metallar havoda oksidlanib qolsa rangi o'zgarishi, eng yupqa metall bo'lagi ham nur o'tkazmasligini ta'kidlash mumkin. Material qizdirilganda uzidan issiqlikni tez o'tkazishi uning issiqlik o'tkazunchanligi deyiladi. Metall o'zidan issiqlikni qancha tez o'tkazsa, u shunchalik tez va tekis qiziydi hamda soviydi. Shu sababli metallardan buyumlar yasashda va ularga ishlov berish chog'ida ularning issiqlikdan o'lchamlari o'zgarishi mumkinligini hisobga olish zarurligi qayd etiladi. Umuman olganda materiallarning fizikaviy xususiyatiga ko'ra farqlay olish, muqobillarini tanlash orqali detal va buyum qismlarini tayyorlashga erishiladi.

Bulardan tashqari, xalq amaliy san'atida materiallardan dastlabki asboblari yoki dastgoxlar yordamida turli buyumlar yasashda, asboblarni sozlashda harakat turlari, kuch, bosim, kuvvat, energiya, ish, ishqalanish kabi fizik tushunchalardan keng foydalanish zarur.

Xalq amaliy san'ati va informatika. Hozirgi zamon xalq amaliy san'atida mahsulotlarni ishlab chiqarishga oid texnologik jarayonlarni takomillashtirib borishni elektron hisoblash mashinasi va informatika asoslari fanisiz amalga

osHIRISH qiyin. Zamon talablaridan kelib chikib shahar va qishloqlarda yangi-yangi, kichik, o'rta korxonalar ochilib ish boshlamoqda. Ana shu ishlab chiqarish muassasalarida zamonaviy avtomatik boshqarish sistemalaridan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun xalq amaliy san'atida o'quvchilarning elektron hisoblash mashinasi va informatika asoslari fani bo'yicha olgan bilim, ko'nikmalarini hisobga olgan holda ularni ishlab chiqarish jarayoniga qanday tadbiq etishga oid tushunchalarni berib borish zarur. Masalan, o'quvchilarga materiallarga mexanik ishlov berish bo'yicha tokarlik, frezalash, randalash, prokatlash, parmalash stanoklari bilan tanishtirayotganda o'quvchilarga xozirgi kundagi takomillashgan avtomat va yarim avtomat dasturlashtirilgan stanoklarning ishlash prinsiplari. nimaga asoslanib ishlashini aytib o'tish joizdir. O'quvchilarga yuqorida aytilgan stanoklarda bajariladagan operasialarni bir stanokda, ya'ni dasturlashtirilgan sistemadagi stanokda bir necha ishlar; yo'nish, teshit, rezba ochish, pardozlash va boshqa operasialarni bajarishdagi qo'layliklar haqida gapirib o'tilsa yanada yaxshiroq bo'ladi. Shuningdek, bunday ishlar uchun dastur tuzishning ahamiyati haqida ham alohida to'xtalib o'tish kerak. Sayohat soatlarida esa shu toifadagi stanoklarni ko'rsatish, informatika fanlaridan olgan bilimlarini mujassamlashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Xalq amaliy san'ati va kimyo. O'quvchilarga materialshunoslikka oid bilimlar berish ularniig bu sohadagi tushunchalarini kengaytirishda kimyoviy usulda olinadigan materiallar, jumladan, plastmassalar, polimerlar, polietilen plyonkalar, sun'iy oyna, sun'iy kauchuk va boshqa shu kabilar haqida ham ma'lumot berishga to'g'ri keladi. Bunda shu xildagi materiallarning olinishi va ishlatilishini moddalarning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari orqali tushuntirish yaxshi natija beradi. Bulardan tashqari yelim, buyoq, lok, aseton kabi biriktiruvchi, pardoz va erituvchi materiallarning hosil qilinishi, ishlatilishi hamda ulardan foydalanishdagi havfsizlik qoidalari haqida ham alohida to'xtalib utish zarur.

Xalq amaliy san'ati va biologiya. Biologiyaga oid tushuncha va ma'lumotlar, ayniqsa, xalq amaliy san'atining qishloq xo'jaligiga oid qismini o'rgatishda juda

zarur bo'lgan manbalardir, bu ishlarni o'rganishda biologiya, botanika kabi fanlardagi bilimlardan foydalaniladi. Amaliy san'at darslarida esa daraxt (yog'och) larning turlari va tuzilishini, ularning yoshini, nuqsonlarini va namligini aniqlashda ham biologiyaga oid ma'lumotlar kerak buladi. Shuniigdek, amaliy mashg'ulotlarda terlash, charchash, jismoniy zo'riqish kasb fiziologik holatlar hamda ularning zararli oqibatlarini, tozalik va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishni tushuntirishda ham biologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi tibbiyot kabi fanlardagi bilimlarga asoslanib ish olib boriladi. O'qituvchi, ayniqsa, 13-15 yoshdagi o'quvchilar bilan amaliy mashg'ulot o'tkazishda xushyor bulishi kerak. Chunki bunda o'quvchilar "o'tish" davri deb ataluvchi biologik jihatdan faol pallada bo'ladi. Bunda o'quvchilarning qo'l-oyoklari, bo'yi tez o'sadi, ovozi o'zgaradi. Ko'p xollarda ichki bezlar bunday o'sish sur'atini yetarli ta'minlay olmaydilar. Natijada o'quvchilar tez charchab qoladilar, o'zlarini noxush, holsiz sezishlari ham mumkin. Shuning uchun o'quvchilarni bu yoshda surunkali, og'ir jismoniy ish bajarishga jalb etib bo'lmaydi,

Xalq amaliy san'ati va geografiya. Xalq amaliy san'atida o'quvchilarga materialshunoslikka oid. ayrim tushuncha va ma'lumotlarni berishga ham to'g'ri keladi. Jumladan, materialbop daraxtlar va ular o'sadigan joylar haqidagi ma'lumotlardan yog'och ishlash darslarida metallar, metall qotishmalari va ularning turi, metall olinadigan konlar, ularni izlash va topish, rudadan metallarni ajratib olish, turli prokatlar hosil qilish hamda ulardan foydalanish haqidagi ma'lumotlarni metallarni ishlashga oid mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Bunda bevosita geografiya va uning tarmoqlari bo'lgan mineralogiya, geofizika kabi fanlar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarga asoslanish zarur. Jumladan respublikamiz hududida hozirgacha 829 gacha kon topilganligi, ulardan 30 tadani oltin va marmar konlari ekanligini alohida eslatib o'tish kerak. Bu o'quvchilarda faxrlanish xissini tarbiyalashga, Vatanimiz faqat yep ustigina emas, balki yer osti boyliklarga ham kon ekanligini xis etishga yordam beradi. Qolaversa, respublika iqtisodiyotida muhim o'rin tutgan ishlab chiqarish korxonalarini, masalan, mexanika,

mashinasozlik zavodlari, tikuvchilik va tuquvchilik, qurilish materiallari kombinatlari va boshqalar haqida ham ma'lumot berish foydalidir.

Amaliy geografiya - Hozirgi zamon geografik tadqiqot yo'nalish-laridan biri. Amaliy geografiya hududlar tabiiy sharoitlarini har xil amaliy maqsadlarda - yerdan qishloq xo'jaligida foydalanish, yo'l, shahar va sanoat inshootlari qurish odamlarning turmush sharoitlari va sog'ligiga mos kelish-kelmasligi nuqtai nazaridan urganadi. Amaliy geografiya tadqiqotlari uch asosiy yo'nalishda: agrogeografik, muhandislik-geografik va tibbiy-geografik yo'nalishlarda olib boriladi. Agrogeografik tadqiqotlar yerlarni sug'orish yoki quritish, yaylov chorvachiligi, bahorikor dehqonchilik, tuproqlash zararli tabiiy jarayonlar ta'siridan, suv va shamol eroziyasidan saklash kabi masalalarni o'rganadi. Tuproqlari, relyefi, iqlimi, o'simliklari va yog'in miqdori kabi xususiyatlariga muhim bulgan joylar maxsus xaritalarda alohida ajratib kursatiladi. Agrogeografik tadqiqotlar O'zbekistonda - makroiqtisodiyot va ijtimoiy tadqiqotlar instituti, Seysmologiya instituti tarkibidagi Geografiya ilmiy tadqiqot bo'limi, xususan, Toshkent, Samarkand, Farg'ona universitetlarining geografiya fakultetlarida olib boriladi.

Muhandislik-geografik tadqiqotlar xududlarning tabiiy sharoitlariga har xil muhandislik inshootlarini joylashtirish imkonini o'rganadi. O'zbekistonda yo'l, kanal, shaharlar, sanoat binolarini kurishda, yerning qiyaligi va relyefning notekisligi, lyoss gruntlarning chukish ehtimoli, qum ko'chishlari va tez-tez bo'lib turadigan kuchli shamollar hisobga olinadi. Bunda geograf tabiat xodisalari orasidagi bog'lanishlar va qonuniyatlarni aniqlaydi.

Tibbiy-geografik tadqiqotlar, ayniqsa, yangidan uzlashtirilayotgan yerlarning tibbiy-geografik bashorat xaritasini tuzish muammolari bilan shug'ullanadi. Geografik tadqiqotning bu sohasi mahalliy geografik sharoit bilan bog'liq, vabo, tulyaremiya, ensefalit, buqoq kasalliklarining tarqalish qonuniyatlarini o'rganishda muvaffaqiyatlarga erishdi.

Xalq amaliy san'ati va jismoniy tarbiya. Ma'lumki, xalq amaliy san'ati darslarining asosiy qismi amaliy mashg'ulotlardan iborat. Shu sababli o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarda xorib qolmasliklari ko'p jihatdan ularning jismoniy chiniqishlariga bog'liqdir. Bundan xalq amaliy san'ati va jismoniy tarbiya mashg'ulot-larini o'zaro muvofiqlashtirish zarur degan oqilona xulosa kelib chiqadi. Binobarin, yoshlarni jismoniy tarbiyalash bilan ularni mehnatga, san'atga tayyorlashning o'zaro kompleks bog'langan masalasi hal etiladi, ya'ni unda shaxsning amaliy san'atga doir mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan professional jismoniy xususiyatlari, xarakter malakalari, axloqiy-irodaviy va sosial sifatlari shakllanadi, Xususan arralash, randalash ishlarini gimnastika, bolg'alash ishlarini boks, chamalash ishlarini muljalga olish kabi mashg'ulotlarga muvofiqlashtirish mumkin. Duradgor, tokar, elektr payvandchi, shuvoqchi, g'isht teruvchi, slesar santexnik kabi kasblarga bevosita moslashtirish qiyin emas. Bunday ishlarni amaliy san'at buyumlarini yasash va tayyorlashda qo'llaniladi. Shu kabi amaliy san'at maxsulotlarining yangi avlodi dunyoga keladi.

Xalq amaliy san'ati va adabiyot. Ma'lumki, Xalq amaliy san'atida adabiyot fanining bog'lanishi sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Chunki adabiy asarlarda xalq amaliy san'ati g'oyalari ufurib turadi. Xalq amaliy san'ati darslarida bulardan omilkorlik bilan foydalanish, zarur parchalarni o'qib berish kerak. Shuningdek, mashhur shoirlar o'tmishda ustalar tomonidan yasalgan ajoyib moslamalardan foydalanganliklarini ham eslatib o'tish mumkin. Masalan, o'quvchilarga kitob qo'yib o'qish uchun mo'ljallangan lavh haqida ma'lumot berish bilan bevosita Nizomiy, Al-Xorazmiy, Abduraxmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi allomalarimizning ijodiy faoliyatlariga to'xtalib, ular mana shu moslamadan, ya'ni lavxadan foydalanib kitob mutoala qilganliklarini aytib o'tish o'rinlidir. Shoir Xislat esa, mashhur shoir bo'lish bilan birga mohir duradgor usta bo'lganligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bulardan tashqari, nazariy va amaliy darslarda o'lchov olish ishlarini xalq og'zaki ijodi bilan bog'lash ham mumkin. Bu o'rinda quyidagi xalq maqollarini keltirish o'rinlidir: "Yetti o'lchab

bir kes", "Rejali ish buzilmas", "Rejasiz ish - qolipsiz g'isht", "Sanamay sakkiz dema", "Keng kengashib yirtilar, tor tortishib" va boshqalar.

Xalq amaliy san'ati va ona tili. Hayotda nutq va tilning ahamiyati nihoyatda muhimdir. Hammamizga ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida o'zbek tiliga, atamalarga, tilning lug'at boyligiga e'tibor susaydi. 1989 yilda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" Qonunning qabul qilinishi Xalq amaliy san'atini o'qitish ishlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mavzularni bayon qilishda ona tiliga mos holda ayrim atamalarning o'zbekcha shaklini ko'rsatish lozim. Jumladan, kolerni-buyoq, verstakni - dastgox, remontni - ta'mir, slesarni - chilangar, lineykani - jazbar, holodilnikni - sovutgich kabi unlab atamalarni misol qilib keltirish mumkin. Shular qatorida ayrim so'z va atamalar borki, ularnn o'zbekchalashtirish mumkin emas, chunki ular ifodalangan narsa va bular ilgari bizda ishlatilmagan, shuning uchun o'sha so'zlarni o'zgarishsiz qo'llash lozim bo'ladi. Bunday so'zlarga sirkul, tiski, otvyortka, rezba, rezina, montaj, plastmassa, agregat, seyalka, borona, voltmetr, ampermetr, radiolampa, diod, zubilo, shtangensirkul, transportir, stanok kabi atamalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, ona tili darslarida ayrim mavzularni o'rgatish jarayonida amaliy san'atga oid misollarni kullash orqali ham fanlarni bir-biriga bog'lash mumkin. Jumladan, "Kasb-hunar so'zlari" mavzusi o'rganilayotgan-da naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, kulolchilik va boshqa kasblarga doir atama va so'zlardan keng foydalanish, ularni o'quvchilarning o'zlariga toptirish, uydan yozib kelish uchun vazifa qilib berish mumkin. Bunday ishlar orqali o'quvchilar har xil amaliy san'atga doir kasb-hunarlar bilan tanishadilar, ulardan shu amaliy san'atga ma'lum darajada qiziqish va ishtiyoq uyg'onadi.

Xalq amaliy san'ati va tarix. Kuxna va navqiron o'lkamiz ko'p ming yillik tarixga, madaniy merosga ega. O'lkamizda xalq amaliy san'ati, naqqoshlik, me'morchilik kabi o'nlab noyob kasblar ravnaq topgan. Qo'li gul ustalar tomonidan ajoyib buyumlar yasalgan, muxtasham binolar qurilgan. Ularning ishlarini fidoiy shogirdlar davom ettirib kelganlar, shuning uchun biz moziyga,

o'tmishimizga nazar tashlamasdan turib, xozirgi hayotimizni, kelajakdagi turmushimizni gullatib yashnata olmaymiz. Zero, Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ham "Tarixiy xotirasiz kelajak yuq" deb bejiz aytmagan. Barkamol avlodni tarbiyalashda tarix fani xalq amaliy san'atini o'rgatishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni hunarga, xususan xalq hunarmandchiligiga qiziqtirishda tarixdagi kurilish, binolarning ustalari, me'morlar, kulollar, zargarlar, duradgorlar, temirchilarning qilgan ishlari bilan tanishtirish mumkin. Xozirgi kunda xalq amaliy san'atiga, hunarmandchiligiga e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Masalan, xozir ko'pchilik maktablarda javon, xontaxta, eshik, rom, darvoza, suri, sandal, beshik, sandiq, milliy kursi kabi buyumlarni tayyorlash ishlari o'quvchilarga dars mobaynida o'rgatib borilmokda. Bularning hammasi tariximizga, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborning bir ko'rinishidir. Bulardan tashqari maktabdagi, kollejlardagi yoki tumanlardagi o'lkashunoslik muzeylariga ayrim buyumlarning namunalarini yasab berish orqali ham o'quvchilarga tarixiy ma'lumotlar hamda tushunchalar berish, ulardan o'tmishdagi ajdodlarimizning san'at va ustachiligidan zavqlanish, faxrlanish xissini tarbiyalash mumkin.

Xalq amaliy san'ati va ekologiya. Hozirgi kunda bozor iktisodiyoti sharoitida ish asboblari va xom ashyolardan tejamkorlik bilan foydalanish kun tartibidagi asosiy talablardan bo'lib qoldi. Amaliy mashg'ulotlarda xom ashyolardan va asbob- uskunalardan tejamsiz, pala-partish foydalanish pirovard oqibatda ekologiya muammosiga kelib taqaladi. Shuning uchun o'quvchilarga yog'och, metall, plastmassa kabi materiallarni berayotganda nima uchun shu xom ashyolarni tejamkorlik bilan ishlatish zarurligini aytib o'tish lozim. Ularga bu narsalarning uzoq davrlar mobaynida va qanday yo'llar bilan vujudga kelishini hamda tabiatga qanchalik ta'sir kursatishini yoki bog'likligini gapirib o'tish mumkin.

Xalq amaliy san'ati va mehnat ta'limi. Inson mehnati natijasida sodir bo'lgan buyumlar ishlov berish natijasida xalq amaliy san'at asariga aylanishi mumkin. Mehnat ta'limining tarixiy asosi xalq hunarmandchiligi hisoblanadi. Xalq amaliy

san'atining yog'ochga ishlov berish, yog'och o'ymakorligi, metallarga ishlov berish, metall o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zardo'zlik, kashtachilik va boshqa bo'limlari faqat mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'rgatiladi. Bular o'z tuzilishi va estetik sayqallanishi bilan amaliy san'at maxsulotlari bo'ladi.

2.2 Amaliy san'atda rangtasvir kompozitsiyasini o'qitish.

Rassom ijodkorlar sinfi vakillaridan hisoblanadi va yaratayotgan har bir asari ma'lum qoidaga asosan bajarilib tomoshabin hukmiga qo'yiladi. Shuning uchun talabalarga kompozitsiya asoslarini o'rgatish jarayonida ijodkorlikka yo'naltirib boriladi. Talaba yangi ya'ni boshqa birov tomonidan yaratilmagan fikridagi ma'lumotlarni xolist yuzasiga bo'yoqlar yordamida tushiradi. Mana shu talabaning ijodi bo'ladi. Xo'p shunga talaba qanday erishish mumkin? Avvalo talaba oliy ta'limga o'qishga kelgunigacha maktab tasviriy sanat o'quvi davomida mavzuli rasmlar chizishni o'rgangan bo'ladi. Agar shu davrda yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, keyingi talabalik davrida barcha ishlari oson ko'chadi va ijod mahsuli ham samarali bo'ladi. Bu ijodkorlikni shoirning she'r yozishiga yozuvchi hikoyasiga olim yangiligiga uxshatish mumkin. Chunki, ijod odam ruhiy olamida nima fikr etilsa shular yuzaga chiqadi, yangilik deb tan olinadi. Kompozitsiya darsida yaratilgan asar ham shu kabi ijodiy jarayondir.

Tasviriy san'at darslarining kompozitsiya fani masalasiga talabalarning ijodiy ish mahsulini ko'zatar ekanmiz, qo'yidagicha kamchiliklarning borligiga guvoh bo'lamiz.

- Kompozitsiya mavzusini tanlashda ikkilanishlar borligi;
- Kompozitsion tasvirlash vositalaridan to'g'ri foydalana bilmaslik;
- Mashhur rassomlar asarini mustaqil ijodiy tahlil qila bilmaslik;
- Bajarmoqchi bo'layotgan mavzudagi kompozitsiyaning yechimini topa olmaslik;

- Kopozisiyaning mustaqil ijodiy jarayon ekanligiga befarqlik;
- Ko'proq tayyor rassomlar chizgan asarlarga to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish yoki ko'chirib chizishga harakat;
- Kompozision markazni aniqlashning norealligi va boshqalar;

Xush bunday kompozisiya ishlashdagi xato va kamchiliklarni qanday talabalarning ijodidan bartaraf etish mumkin. Kompozisiyaning bajarilishiga birinchidan hamma vaqt talaba o'zining bilimi bilan tayyor turishi kerak. Bu bilimlarni oliy o'quv yurtining badiiy grafika fakulteti tasviriy san'at yo'nalishi bo'limida, dizayin va rassomchilik oliygo'hida, san'at kollejlarining tasviriy san'at bilan mashg'ul bo'ladigan sohalarida o'rganiladi. Ammo kompozisiya alohida fan sifatida bo'lsada u barcha rangtasvir, qalamtasvir va boshqa mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida o'rganib boriladi. Shuning uchun kompozisiyaning asosini qalamtasvir, tasviriy san'at tarixi fanlari egallaydi. Kompozisiyada ko'proq shu o'rinda o'rganganlari asosida yangi asarlar yaratishga harakat qilinadi.

Agar rasm chizishni, rang berishni, asarlarni to'g'ri tahlil qilishni yaxshi o'zlashtirgan bo'sa u kompozisiya yarata oladi. Tasviriy san'at darslari deb biladigan bu oliy va o'rta maxsus ta'lim rassomchilik yo'nalishida o'rganilgan fanlar tizimi unga tayorgarlikdir. Buning uchun avvalo talaba quyidagilarga to'liq amal qilish kerak bo'ladi.

1. Qalamtasvirda yaxshigina rasm chiza olishi, buda nabroska (qoralamalar), xomaki tasvirlar, narsalarning chizilishini o'rganishi; tabiatni chiza olishi kerak.

2. Rangtasvirda ham chizganda borliqdagi ranglarni aniq ajrata bilishi, bunda etyudlar chizib uni umumlashtirishni bilishi;

3. Rassomlar chizgan tasviriy san'at asarlarini tahlil qilib mazmunini, rangini, tuzilishini ko'ra olishi lozim. Shunda u kompozisiya yarata olishi mumkin bo'ladi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, qanchalik falsafiy, dunyoviy fikr yurita olsa, voqeyilikni to'g'ri anglay bilsa u shunchalik boy fikrga ega bo'ladi. Shuning uchun talaba hamma voqyealarga benazar tasavvurga ega bo'lmasligi lozim.

Kompozisiyani o'rgatish masalasida o'zlashtirilgan bilimlar ko'nikmalar g'oyat katta o'rin tutar ekan. Ko'proq mustaqil mavzular tanlab, uning mazmunini oshirishga harakat qilmoq kerak kompozisiya masallari bo'yicha buyuk o'yg'onish davri rassomlari Leonardo da Vinchi, Rafayel Santi, Tisian, Mekelanjelo, Alberxt Dyurer, kabi, yana sharq musavvirlari miniatyura ustasi Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahib, Murod Samarqandiy, Ahmad Kallalar asari kompozisiyasiga murojat qilish lozim. Ular har bir chiziqqa jon ato eta olgan tasviriy san'at ustalaridir.

Rus rassomlaridan, I.N.Kramiskoy, P.P.Konchalovskiy, P.A.Fedatov, V.I.Surikov, A.K.Savrasov, I.Ye.Repin, I.K.Ayvazovskiy, V.M.Vasnesov, I.I.Levitan, A.I.Kuindji, A.A.Ivanov, I.I.Shishkin va boshqalarning asarlarida mazmun va chizg'i uyg'unligi mujassam. O'zbekiston tasviriy san'atida ham O'. Tansiqboyev, R. Ahmedov, Ch. Ahmarov, R.Choriyev, U.Mo'min kabilar ijodini doimiy o'rganish mumkin.

Kompozisiyani tushuntirish masalasi I. Shoroxov, P. Neminiskiy, G'.Abdurahmonov kabi rassomlarning yozma asarlarida beriladi. Bu kompozision asarlarni o'rganish jarayoni ko'plab adabiyotlarda keltirib o'tilsada, u murakkab mavzuligicha qolmoqda. Demak kompozisiya yaratish to'liqligicha har bir insonning, rassomning ijodiy komilligi bilan bog'lanib ketadi. Faqat kompozisiyani o'rganish butun borliqni anglash va tasvirlash bilan o'zining mohiyatini ochib bera oladi. Bu esa yangi asar degan mustaqil bir mavzuni dunyoga keltirishi hamda boshqalarni hayratda qoldirishi bilan o'z yechimini topadi. Bu doimo bir-biri bilan bog'langan xolda amalga oshib boradi. Amaliy san'atda kompozision yechim ham yaratilayotgan bezaklar, naqsh elementlarining bir-biriga uyg'unligi, ganch, miss, yog'och o'ymakorliklari-dagi kompozisiya ranglar bilan shakllantiriladi. Har bir ustaning uslubi, voxaning o'ziga xos elementlari mavjud. Shularning kompozisiyasini turli kurinishlarda ifodalanishi bilan yangi asarlar yaratiladi.

2.3 Amaliy san'atni o'qitishda fanlararo bog'lanishni o'rgatish metodikasi.

Aloqadorlikning o'ziga xos jixatlari shuki umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar ta'limi maktablarining tasviriy va amaliy san'at darslarida predmetlararo bog'lanishning o'ziga xos xususiyatlari bu o'quv fani mazmuniga mos tuzilishi va mazmuni, imkoniyatlari asosida belgilanadi. DTS o'quvchilarning fanni o'zlashtirishga, bilimiga qo'yilgan minimal talablarni bildiradi. U 1999 yil 16 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim maktablarining davlat ta'lim standartlari (DTS) va dasturida belgilandi xamda Respublika xalq ta'limi "Ta'lim taraqqiyoti" maxsus axborotnomasida tasviriy san'at ta'limining tuzilishlari keltirib o'tilgan 86 betda.

Ana shu tasviriy san'at ta'limi turlarining barchasida predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

Unda keltirilishicha boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslari 1-4 sinflarda borliqni idrok etish bilan boshlanadi. Bu atrof-olamni, voqyealarning o'zini, narsalarni, tabiatdagi go'zallikni estetik idrok etish, undan zavqlanishga yo'naltirilgan. Tasviriy san'atda tasvirlanadigan narsalarning o'zi turli fanlarga bog'lanib ketadi. Shunday borliqdagi narsalarni idrok etishning o'zi tabiatshunoslik faniga, botanikaga, ekologiya kabi fanlarni chuqur o'rganishga xizmat qiladi. Chunki, o'quvchi har bir narsani olib ko'rish, kuzatish, fikr qilishga imkoniyat sodir bo'ladi. Borliqdagi tabiiy materiallardan o'quvchi san'atkorona ruxiy quvvat olishga, tasviriy ifodalash bilan moxiyatini anglashga o'rganadi. Tabiatdagi tirik notirik olam o'quvchi olamida yangiliklar ochaveradi. Turli mavjudodlar tarkibi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'la boshlaydi. Shuningdek, o'quvchi narsalarni bir-biriga solishtirib ko'rish, qattiq yoki yumshoq xolatini idrok qilishni o'rganadi. Shular natijasida birinchi go'zallikni xis etib undan ta'sirlanadi. Bu o'z navbatida boshqa fanlar asosini anglashga xam yordam beradi.

Borliqni idrok etish nafaqat tasviriy san'atdagi voqeya xodisalarga balki, tarix, geografiya, falakiyotshunoslik fanlarida ham muxim ta'lim jarayoni bo'lib xisoblanadi.

Tasviriy san'atning bu kabi boshqa turlari ya'ni, san'atni idrok etish jarayoni ham fanlararo bog'lanishda muhim ahamiyat kasb etadi. "San'at borliqni bilishning eng ta'sirchan vositasidir" – degan edi psixolog B.T.Borev. Shu kabi san'atni idrok etish ham xayotni anglashda bolaga katta ta'sir ko'rsatadi. San'atni idrok etish mashg'uloti turlarida tasviriy san'atning turlari, janrlari, yo'nalishlari, oqimlar tasvirlash vositalari, badiiy materiallarni o'rganish xam nazarga olingan. Jaxon san'atini o'rganishga ham imkon yaratadi. Chunki tarixda Sharq uyg'onish davri, Yevropa uyg'onish davri ko'plab san'atkorlarni yetishtirib bergan edi. Shularni xayot faoliyatini o'rganish orqali xam biz o'tmishni bilamiz bu tarix fani bilan chambarchas bog'liqdir.

Tasviriy va amaliy san'at chuqur o'zida falsafiylikni ham mujassam etadi. San'at asarlarida milliy, diniy, dunyoviy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy xayot ko'rinishlari ifodalanib bola bu ta'lim jarayonida uni o'rganib oladi. Shu bilan boshqa fanlarga bog'liqligi ko'rinadi.

Badiiy ko'rish – yasash mashg'ulotlari o'z-o'zidan ma'lumki, mehnat ta'limi ya'ni, ixtirochilik bilan bog'lanib beradi, unda ham tabiiy materiallar, chiqindi, tashlandiq turli materiallardan narsalar yasash, ko'rish nazarga olingan.

Mehnat ta'limida bu narsalardan foydalanib obrazlarini tasviriy san'atda o'rganadi. Misol uchun: O'quvchi kartondan bukib uyachalar, geometrik figuralar yasaydi, bundan ko'rinib turibdiki, o'lcham olishga olib keladi. Matematika fani shu o'lchovda yordamga keladi. Shaklni bilishda geometriya, xossalarni, tarkibini bilishda kimyo, fizika fanlari bilan bog'lanadi. Chunki bularni kleylar, kleylar bilan yopishtirib ishlanadi. Qog'ozlarni bukadi va kerakli shakllarni xosil qiladi. Ikebana, maketlar yasash, qog'oz, loy, plastilin, buyoqlar yordamida turli ishlov berish ishlari bilan shug'ullanadi. Shularning xammasi ham boshqa-boshqa fanlar tarkibiga kiradi. Shular orqali badiiy qurish-yasash bilan tasvirlashni ham

o'rganadi, qadimiy me'morchilik binolari tarixi, maketlarini yasash tartiblari, materiallari haqida malumotlarni oladi. Predmetlararo bog'lanishda o'ziga xoslik jihatlari shu dars davomida namoyon bo'ladi.

San'atshunoslik asoslarida esa tasviriy san'atning turlari va janrlari bo'lgan rang tasvir, grafika, dekorativ amaliy san'at, xaykaltaroshlik, me'morchilik to'g'risida ma'lumotlar berish talabi qo'yiladi. Shu tarixga qarab borishda qadimgi, xar bir davrni o'zida namoyon etadi. Masalan; qadimgi dunyo tarixi, O'rta asrlar tarixi, yangi tarix va boshqasi. Turli devoriy suratlar, sanamlar xaykili, butlar, sopol idish – tovoqlar, buyumlarning borligi tarix bo'ladi. Shu xam tasviriy san'atning asosiy tomonlaridandir.

Qadimgi Afrosiyob, Varaxsha, Dalvarzin tepa, Tuproqqala, Axsipent, Ellikqala kabi joylar, Gresiya, Afina, Rim, Fransiya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Xind davlatlaridagi tarixga doir yodgorliklar xam san'at asarlari bo'lsa yana nima xam deyish mumkin. San'atshunoslik asoslarini o'rganish bilan rangtasvir, dastgoxli rangtasvir, monumental rangtasvir, mo'jaz rangtasvir, mozaika, frezka xammasi ma'lum bir tasviriy san'atning turi bo'lib xisoblanadi. Shuningdek, rangtasvir, grafika, xaykaltaroshlik aloxida janrlarga ham bo'linadi. Ya'ni portret, peysaj, manzara, tarixiy, afsonaviy, maishiy, natyurmort, animal, botal – jang ko'rinishlari aks ettiruvchi janrlarga ajraladi. Bularning har biri aloxida fan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham fanlarning bir – biriga bog'lanishi, cheksiz ta'lim-tarbiya uchun omil bo'lib xizmat qiladi.

Haykaltaroshlik turini olib ko'rish mumkin. Bu ham o'z xususiyatiga ko'ra dumaloq haykal, relyefga bo'linadi. Shu kabi dastgoxli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik, maxobatli haykaltaroshlikka bo'linadi. Bularning yaratilishi, saqlanishi, tuzilish jihatidan anatomiyaga, tabiatga, biologiyaga, geografiyaga bog'lanadi. Agar o'qituvchi ularni bilib darsda to'g'ri ma'lumotlarni bera olsa buning o'ziga xoslik jihatlarni ham anglashga yordam bera oladi.

Me'morchilikni olib ko'ring – bu har bir insonqo'li bilan yaratilgan me'moriy binolarimiz, yashash joyimiz. Shuning uchun xozir turli xashamatli binolar ko'payib ketdi. Kollejlar, maktablar. Oliy o'quv yurtlari ma'muriy binolar, savdo maskanlari, rastalari, teatrlar, park va boshqa dam olish maskanlari qurilishi me'morchilikdir. Qadimiy O'rta asrlardagi me'moriy binolar, Sharq va G'arb me'morchiligi o'zining ulug'vorligi bilan dunyoni lol qoldirgan. Bular xammasi yerni yaxshi bilgan usta geodeziyachilar, bo'yoqni yaxshi bilgan kimyogarlar, naqqosh ustalar va boshqalar mehnati ham bir-biriga bog'lanib ketadi. Shuning o'zi ham predmetlararo bog'lanish masalasiga yondashadi.

Umumiy ta'lim maktablari tasviriy san'at dasrlarida naturaga qarab rasm chizish, naturaga qarab haykal ishlashga bo'linadi. Bularning kompozitsiyasi, tuzilishi, chizilish, o'lchovi, joylashishi, tanlanishi, materiallari va boshqalar fanlarning eng mukammallari bilan bog'lanadi. Tabiiy materiallar, borliqdagi narsalar barchasi fanning asosini egallaydi.

Shu kabi narsalarni joy-joyiga qo'yish, saqlash, tayyorlash, masalan, gigiyena, medisina, ekologiya, salomatlik ma'naviyati bilan bog'lanadi.

Kompozitsiya ishlash jarayoni ham bulardan kam emas predmetlararo aloqada, tasviriy san'at ta'limi dasturida keltirilgan mavzu asosida kompozitsiya ishlash voqyelikni inson ongida o'ziga tushunib tomoshabinga badiiy qilib yetkazishni nazarda tutadi.

Bunda soya, yorug' o'yinlarning o'z o'rnida aks ettirilishi, rasmning mazmuniga mos ekanligi, tabiatning rang-barang ko'rinishi, nisbat xarakterli xususiyatlari barchasi boshqa fanga bog'lanadi. Ufq chizig'i tabiatshunoslikda ham bor, perspektiva qonuniyati geometriya, o'lchovlari matematikada umuman tasviriy san'at fanining boshqa fanlarga bog'lanmagani yo'q. Hamma fanga bog'lanib ketadi.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya, syujetli, mazmunli kompozitsiyalar yaratilishi ma'lum miqdorda ritm, simmetriya, assimetriya qoidalariga bo'ysunadi. Geometriyaning terminlariga ham o'xshashmi? Xa

shuning uchun xam dekorativ kompozisiyada – naqshlar ishlash oddiy chiziqlarni chizib olib keyin uning ornamentlari chiziladi. Bular ham matematika, geometriya, chizmachilik qoidalariga bo'ysungan xolda namoyon bo'ladi. Naqshlar gullardan, barglardan, xasharotlar, qushlar, o'simliklar va shu kabi boshqa narsalarning stilizasiya qilinganlaridan bo'lib hisoblanadi. Bularning ham har birini ma'lum bir fanga bog'lab olib berish mumkin. Masalan: kvadrat ichida naqsh chizish kabi mavzular berilgan bo'lsa, uning xar biri chiziqlar bilan qalamda bajariladi, sxemalar keltiriladi. Unga gul, barg, shoxlari, mevalar, xattoki xayvonlarni shoxlarini stilizasiya qilish orqali joylashtiriladi. Keyin u rang berib chiroyli naqsh xolatiga keltiriladi. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, naqsh chizish ham fanlar bilan chambarchas bog'lanadi. Shunda ko'plab rassomlarning asarlarini ham tushunadigan insonlar, ma'naviyatli, go'zal xulqli, madaniyatli, nafosatli komil shaxs paydo bo'ladi.

Tasviriy va amaliy san'at ta'limida predmetlararo bog'lanish mazmunini anglagan xolda quyidagicha o'ziga xos tomonlari to'g'risida fikr muloxazalarni keltirish mumkin.

- tasviriy va amaliy san'at darslarida predmetlararo bog'lanishning o'ziga xoslik jixati barcha tur va janrlarda predmetlarga bog'lanib o'tuvchi bilimni shakllantirishda muxim vositalardan biri bo'lib u ko'p qirrali, xilma-xil o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan jarayonidir.

- tasviriy va amaliy san'at fanini o'qitish masalalari boshqa fanlar asosiga emas balki xamma fanni chuqur o'zlashtirishda bu fan yetakchi ekanligini e'tirof etgan xolda o'quvchilar bu masalani anglasa, o'qituvchi fanlararo bog'lanishni xar bir dars soatida namoyon eta bilsa bo'ladi.

- tasviriy va amaliy san'at fanida boshqa fanlarni o'rganish imkoniyatlari mavjud ekan eng avvalo rasm chizishni, ijod qilishni o'rganish samarali bo'lib xisoblanadi.

Tasviriy va amaliy san'at ta'limini o'qitish masalasida barcha fanlar bir-biriga aloqador ekanligini ko'rib chiqdik. O'quvchilarni badiiy estetik tarbiyasida

tevarak atrofdagi narsa va xodisalar, voqyealarga estetik munosabatda bo'lishda, ularni maqsadga muvofiq ravishda ko'rib idrok etishda muxim rol o'ynaydi. Tasviriy va amaliy san'at fanining eng o'zaro yaqin bo'lgan fani badiiy mehnat bo'lib u tabiiy materiallar bilan ishlash masalalariga qaratilgandir. Fanning bu qismini ham asosan mehnat darslarida, tasviriy san'atda qanday darajada ko'rish yoki o'rganish haqida ma'lumotlar olindi. Har qaysi fanning asosi albatta biror fanga bog'lanib ketishi mumkin. Lekin eng yaqin fanlar turkumi borki bu shu fanning doimiy birligi asosida bo'ladi.

Badiiy mehnat darslari. Asosan boshlang'ich sinflarda o'tkaziladi, turli shakldagi (qalamdon, quticha, xavo shari, bayroqcha, choynak, lagan, ko'za va boshqalar) narsalarni rangli qog'oz va kartondan yasash. Xasharot (qo'ng'iz, ninachi, kapalak va boshqalar)ni rangli qog'ozlarni qirqish orqali xosil qilish. Rangli qog'ozlarni qirqish va yelimlash yo'li bilan osma o'yinchoqlar tayyorlash. Tabiiy materiallar yordamida baliq, qush, xayvon va boshqalarning tasvirlarini xosil qilish. Rangli qog'oz, badiiy va tashlandiq materiallardan aplikasiya, kollaj usulida syujetli kompozitlar ishlash. Tashlandiq materiallar (sim, cho'p, kanop, ip, gazlama parchalari, plastmassa idishlar, gugurt qutichalari, po'kak, penoplast va boshqalar) yordamida uncha murakkab bo'lmagan o'yinchoq texnika vositalari (qayiq, mashina, traktor, kemalar va boshqalarni) ishlash, qushlardan (qaldirg'och, g'oz, to'ti, ukki, chumchuq, laylak, o'rdak va boshqalar), xayvonlardan (bo'ri, tulki, quyon, it, yo'lbars, sher, ayiq, bug'u, kiyik va boshqalarni) o'yinchoq tasvirini yasash beriladi. Qurtilgan barglar, shoxlar yordamida novdali gul, gullagan daraxt, ekilgan mevali va mevasiz daraxtlarni yasash. Qog'ozni qirqish va yopishtirib ishlash orqali qush va xayvon niqoblari, konus, silindr, to'rtyoqli prizma shaklidagi xayvon, odam tasvirlarini, minora, binolarning maketlarini yasash ham mumkin. Bularning yasalishidan oldin tasavvur etish kerak va eskizini chizib olish lozim. Bu tasviriy san'at fani zimmasidagi vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu kabi boshqa fanlardan bo'lgan musiqa darsida ham asosan bolalar musiqa asarlarini o'rganish bilan estetik zavq oladigan bo'lsa u tasviriy san'at darslariga ham bog'lanib turadi.

Bolalar tasviriy san'at darslarida chizgan narsalarini musiqiy ohanglarda bajarganda ko'proq ilxom olishi. Shuningdek, musiqiy notalarining o'zi ham tasviriy san'at bilan bog'lanadi. Uning yo'llari, notaning tuzilishi bolalarga ko'pincha suratlar orqali tushuntirib beriladi.

Musiqa darslarida o'quvchilar boshlang'ich sinflarda quyidagicha bilimlarni olishlari talab etiladi:

- Musiqa badiiy san'at ekanligini bilishlari, kuyga tavsif bera olishi;
- Xalq musiqa merosi haqida tushunchalarga ega bo'lishi;
- Cholg'u asboblarni bilishi va tovush tembrlaridan ularni farqlay olishi;
- Musiqaga oid oddiy atamani bilishi;
- Nota yozuvlarini bilishi va amalda qo'llay olishi;
- Birgalikda va yakka xolda kuylay olishi;
- Ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olishi.

Haqiqatdan ham musiqa san'ati bilan tasviriy va amaliy san'at fanining bog'lanishi juda ham oxangdir. Quyida boshqa fanlarga qo'yilgan ba'zi talablarni keltirib o'taman. Shu ham tasviriy va amaliy san'at bilan juda bog'liq ravishda amalga oshadi.

Ona tili va o'qish fanlari bo'yicha talablar:

- Xarflarni to'g'ri talaffuz etish;
- So'zlarni to'g'ri o'qish;
- Sinash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish;
- Ohanglarga rioya qilish;
- Og'zaki nutqning ravon va to'g'ri bo'lishi;
- Xusnixatni to'g'ri, chiroyli bo'lishligi va xakozolar.

Hammasi tasviriy va amaliy san'at fani bilan bog'lanib boradi. Turli ko'rgazmali materiallarni tayyorlashda bu masalalar asosiy rol o'ynaydi.

Matematika darslarining sanoq tizimi yoki qo'shishi, ayirish, bo'lish, ko'paytirish ham turli suratli narsalarni o'rganish bilan amalga oshiriladi. Geometrik figuralar (shakllar)da esa rasmlarda kesma, uchburchak, to'rtburchak, aylanalarni o'rganish masalalari xalq amaliy dekorativ san'atining naqsh bo'lishi bilan bog'liq ravishda namoyon etiladi. Chunki, yo'l ichida naqsh chizish, kvadratda naqsh chizish, aylanada naqsh chizishlarda o'lchov olish, joylashtirish, sanash ishlari amalga oshadi.

O'quvchilar tabiat o'quv fani bo'yicha ham bilim oladilar. Bunda jonli va jonsiz tabiatni, jism va moddalarni, tabiat xodisalarini, xarakatlarni o'rganish bilan bilimni oshiradi. Yer, quyosh, oy va yulduzlarni, kecha va kunduzni, suv aylanish, havo, shamol, tuman, bulut, yomg'ir va qorning paydo bo'lishini, yovvoyi, madaniy o'simliklarni, qushlar, parrandalar, yovvoyi va uy xayvonlari, tabiatni o'zi yashaydigan uy, qishloq, Vatan tabiatini o'rganish nazarda tutilgan.

Bu tasviriy va amaliy san'at ta'limida ham asosiy manbalardir. "Oltin kuz", "Bulutli kun", "Tong", "Mevalardan natyurmort chizish", tabiat narsalarini stilizasiya qilish asosida naqshlar tuzish darslarini o'tadi. Shu dars soatlari o'z – o'zidan boshqa fanlarga bog'lanadi. Xatto, bular o'rganadigan tabiat xaritasi ham tasviriy san'atga bog'lab olish mumkin bo'ladi. Xona gullari, daladagi tabiat narsalar, o'simliklar, xayvonlar rasm chizishda o'ziga obyekt deb biladi va shularning rasmlarini chizadilar. Shu orqali qanalar bir-biriga bog'lanib boradi. Har bir fan darsida tasviriy san'atga oid iboralardan ham foydalanish ishning muxim tomonlaridir. Chunki hamma narsalar tuzilish, rang, o'ziga xos jixatlari mavjud.

Tarix fanining ham asosiy jihatlari tasviriy san'atga bog'lanib ketadi. Tarixiy janrda yaratilgan asarlarga qarab bilamizki unda bo'lib o'tgan voqyealar tasviriy san'at uchun ham manbadir. San'at asarlarining xammasi tarixiy taraqqiyot bilan bog'langan. Kamoliddin Bexzod asarlari o'z yaratilishi bilan shu davrlardan ma'lumotlar berib turadi. "Shoxnoma", "Zafarnoma", "Temur saroyida qabul" kabi

asarlarga qarab tarixiy voqyealarni anglaymiz. O'tmishdosh kishilar xayoti, yashagan muxiti to'g'risida ma'lumotlar olamiz.

Jaxon va O'zbekiston tarixining davrlari, ijtimoiy tuzilishlar, asrlar, yillar, eralar davomida, qilingan ishlarni o'rganamiz. Tarix rasmlarda ko'z oldimizda gavdalanadi. Qadimgi Afrosiyob, Dalvarzin tepa, Ichanqala, Tuproqqala, Axsikent, Shosh, Varaxsha kabi joylarning tarixini ham turli qazilmalarda topilgan narsalardan bilib olamiz. Bu xam tarix, xam san'at, xam madaniyat to'g'risida xabar beradi.

Soxibqiron bobomiz Amir Temur davri jaxon tarixida o'chmas iz qoldirgan. Rassom Malik Nabiyeu "Amir Temur portretini", "Bobur", "Beruniy" portretlarini shu tarixiy manbalar asosida yaratgan edi. O'rta Osiyodagi xonliklarning ijtimoiy, iqtisodiy rivoji, rus imperiyasining O'zbekistonga bosib kirishi, mustamlakachilik davrlari bu tarix hisoblanadi. Ko'p yillar davomida o'zbek xalqi o'zining erkini sog'inib kelgani, urushlar bo'lib o'tgani tarixiy kitoblarda, suratlarda aks ettirilganini xech kim inkor eta olmaydi. Ikkinchi jaxon urushi yillarida qancha insonlarning xayoti, taqdiri ayanchli bir xolatda bo'ldi. Bularning barchasi rassom asarlarida ham umumlashgan tarzda aks ettirilgandir. Har bir bola o'z ko'chasini, maktabini, qishlog'ini, shaharining o'tmishi, buguni to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish lozim bu masalalarda ham rassom kabi bolalar ko'rib xotirada ushlab qolgan shunday asarlarni bir-biriga qiyoslab bilib oladilar. Shu kabi fanlarga bog'lanish uchun albatta faqat rasm bo'lishi shart ham emas. Buning uchun o'qituvchi masala moxiyatini to'g'ri tushunsa bo'ladi. Tarixiy janrga asosdir.

Fanlarning eng yaqinlaridan biri biologiya bo'lsa, u oldiniga botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, uning biologiyasi kabi fanlar asosida beriladi. Tirik organizmlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shu kabi o'simliklar ildizlari, poyasi, bargi, guli, urug'lari, o'simlik, atrof muxit bog'liqligi, xayvonlar, odamlarni bilish, o'rganish talablari qo'yilgan. Tasviriy san'atning natyurmort, manzara, animalistik, maishiy janrlarda chizilgan rasmlar bu fanga bog'liq ravishda amalga oshadi. Biologiyada keltirilgan va o'quvchi o'rganishi lozim

bo'lgan bu ma'lumotlar tasviriy san'atning turlari janrlarini o'rgatishda ham bajariladi.

Odamni chizishda xarakter xislatlari, ko'rinishi, ish xarakatlari ham chiziladi. Bu masalalarni kuzatish, uning tuzilishini o'rganish talabi bor. Fanlararo bog'lanish shuning eng muxim tomonini belgilaydi ham.

Tasviriy san'at darslarida predmetlararo bog'lanishda yaqin bo'lgan fanlar har bir darsda o'zaro kirishib ketadi. Har birining yo'llari, o'qishi shakl va uslublari o'ziga xos amalga oshiriladi.

Amaliy san'at mashg'ulotlarida akvarel yoki guvash buyoq bilan ish olib borish doimo san'atkor uchun ma'lum qiyinchiliklar to'g'iradi.

Akvarel bilan samarali ishlash uchun ish joyini yaxshi jixozlash, zarur shart sharoitlar yaratish lozim. Ishlash uchun kerakli bor narsalarni qog'ozlar, mo'yqalamlar, mo'yqalam suyab qo'yadigan tirgak, qalamlar, suv idishlari, chelak, latta, planshet, palitra, qog'oz bo'laklari (bo'yoqni sinab ko'rish uchun) knopkalar, skameyka yoki stul akvarel tempera kabilar taxt qilib qo'yilishi kerak. Qog'ozlar ishga tayyor xolda qirqib qo'yilishi, katta (20-24) va kichik (1 - 5) nomerli mo'yqalamlar bo'lishi lozim. Katta xajmdagi mo'yqalamdan keng yuzalarni, kichigidan esa mayda detallarni ishlashda foydalanadigan suvli idishlar ma'qul. Shunda bittasida bo'yoq aralashtirish uchun suv olinsa, ikkinchisida mo'yqalam yuviladi. Toza suv keltirish uchun chelak, ifloslangan mo'yqalam siqib tozalanadigan latta, o'chirg'ich, qalamlar albatta bo'lishi, ularning yumshoqligi o'rtacha bo'lishi kerak. Planshetlarga qog'ozlar tortilib ishga shay qilib qo'yiladi. Jamoa bo'lib ishlashda o'quvchilar bir-birlariga halaqit bermaydigan bo'lib o'tirishlari lozim.

Akvarel – lotincha so'z bo'lib, suvga qoriladigan bo'yoq, shuningdek “akvareldan ishlangan rasm” degan ma'noni bildiradi. Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo'llanilgan. XIX asrda akvarelda yirik san'at asarlari ishlash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan edi. D.Kozene, Tyorner, D.Konstabel, R.Bonington kabi rassomlar o'zlarining akvarelda ishlagan asarlarida

Angliyaning go'zal tabiatini moxirlik bilan tasvirlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishlash san'ati XVII asardan e'tiboran keng yoyila boshladi.

O'rta asrlarda Rossiyada bo'lganidek, G'arbiy Yevropa ham akvareldan cherkovda bo'lgan diniy kitoblarni naqsh va illyustrasiyalar bilan bezashda foydalandi. Lekin u vaqtlarda akvarel oq bo'yoq moddasi qo'shilgan xolda ishlatilar edi. O'rta Osiyoda akvarel kitoblarni chiroyli qilib bezatish maqsadida qo'llanildi. O'rta Osiyo rassomlari ichida ayniqsa Kamoliddin Bexzod kitoblarga akvarel bilan miniatura va illyustrasiyalar ishlashda shuxrat qozondi.

XIX asrning oxirlarida akvarel I.Ye.Repin, V.A.Serov, M.A.Vrubel kabi rassomlarning asarlarida o'zining yangicha sifatlarini san'ati namoyondalari M.A.Gerasimov, S.V.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, B.A.Volkov, Yu.I.Niprinsev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko'pchiligini kitoblarga ishlangan illyustrasiyalar tashkil etadi. O'zbekistonda esa akvarelda ishlash san'atining rivojini B.Xamdamiy, U.Tansiqboyev, G.Shevyakov, G.Siganovlar va ayniqsa Ch.Axmarovlarning ijodida ko'rish mumkin. Tasviriy san'at darslarida ingichka mo'yqalamlardan kam foydalaniladi. Chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bo'lmaydi. Bu xildagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishlaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi. Bir marta olinganidan so'ng, ikkinchi olishda mo'yqalam dastavval tozalab yuviladi va latta bilan siqib tashlanadi. Toza suvga botirib olinganidan keyingina navbatdagi bo'yoq olinadi.

Dastlab 8 dan 10-12, 12-14 nomergacha balki undan kattaroq nomerli mo'yqalam ishlatilib bo'lingach yuviladi, latta bilan siqilgandan keyin tirgakka solib qo'yiladi.

Qalamlar akvarel bo'yog'ida ishlangan rasmlarning yaxshi chiqishiga muxim rol o'ynaydigan vositalardan biridir. Tasviriy san'at darslarida asosan o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi. TM markali qalam chizish uchun juda qulaydir. 2 TM qalam qattiq qalmdir. U tasviriy san'atda nafis joylarni shtirixlashda foydalaniladi. Qalam umuman uchta barmoq bilan ushlanadi va

unchalik qattiq siqib olinmasdan erkin yuritiladi. Uzunroq qalamlardan foydalangan ma'qul. Chunki, kalta qalamlar naturaning o'zaro nisbatlarini o'lchab chizishni qiyinlashtiradi. Siyox rangli qalamlarda rasm chizish mumkin emas. Chiziqqa suv tegsa, bo'yalib ketadi. Qalam bilan chizishda aniqlik, puxtalik va malakali bo'yash talab etiladi.

O'chirg'ich. O'chirg'ichlar ikki xil: qalamda chizilgan chiziqlarni o'chirishga mo'ljallangan hamda iboralar uchun chiqarilgan bo'ladi, noto'g'ri chizilgan tasvirni o'chirishdan oldin to'g'rilab chizib olish ko'rinib turadi. O'chirg'ich bilan o'chirishda qo'l faqat chiziq bo'ylab bir tomonlama xarakatlantiriladi.

Shuningdek o'chirg'ich xadeb ishlataverish ham yaramaydi. Unda qog'oz yuzasiga bo'yoq yaxshi yotmaydigan bo'lib qoladi, o'chirg'ichni qo'lda uzoq ushlab turish mumkin emas. Chunki o'chirg'ich qo'lda ter bosib, qog'ozni kir qilib qo'yishi mumkin. Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin.

1. Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi, hamda qog'oz bo'lagiga surtib sinab ko'riladi.
2. Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yqalamni xamisha eritmaga rosmana botirib olingan bo'lishi kerak.
3. Ostki qavatdagi bo'yoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat yuvilib ketishi mumkin.
4. Akvarel bo'yoqdan foydalanilmaydi chunki, oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.
5. Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

Uyga vazifa.

O'tilgan mavzu asosida yana bir buyoqda surat ishlab ko'rish taklif etiladi.

Rasm chizishda fanlararo bog'lanish.

Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish tasviriy san'at fanining asosini tashkil etadi. Naturaga qarab tasvir jarayonida o'quvchilar naturani taxlil qilish,

ularni bir-biriga taqqoslash, umumlashtirish kabi eng muxim xususiyatlarni tasvirlashga xarakat qiladilar. Bunday xollarda chiziqning to'g'riligini, ranglarning nafis va mutanosibligini, go'zallikni ko'ra olishga diqqat qaratiladi.

Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslarida oldiniga oddiy shakldagi ro'zg'or buyumlarini, qush, hayvon, odam shakllarini asliga qarab va tasavvur qilib lavhalar tushiradi, alohida va to'p holatda natyurmort qilib ishlanadi. Uning shakli, tuzilishini va uning, tayyorlanish sharoitini hisobga olib fanlarga bog'lash imkoniyatlari mavjud.

Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish mashg'ulotlarida o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini tasvirlanayotgan obyektning nafis va go'zalligi, ranglarning hamohangligi, shakl mutanosibligi, tasvirlanayotgan buyumlar orasidagi o'zaro mantiqiy bog'liqlik kabilarga qaratiladi.

Naturaga qarab rasmini ishlash darslari jarayonida fanlar bilan aloqadorlik to'g'risida ko'plab misollarni keltirib o'tish mumkin. 1998 yil nashr etilgan DTS talablari, reja va dasturida tasviriy san'at 1-4 sinflar, 5-7 sinf o'quvchilarida darsni o'tkazish ishlari mazmuni berilgan. Unda quyidagi mavzular kiritilgan bo'lib uning har birida ma'lum bir fanga bog'lanadi.

a) Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni adabiy asarlar qaxramonlariga xos xislatlarni estetik axloqiy ma'naviy tarbiyasini boyitib mustaqil fikrlashga yo'llash.

b) Ta'limiy maqsadi: Tabiiy shakllarni stilizasiyalashtirish yordamida amaliy san'atga qo'llaniladigan naqshi elementlarini chizish.

Topshiriq: Tabiiy shakllar va ularning ramziy ma'nolari haqida ma'lumot berish.

Darsni taqsimlash:

1. Tashkiliy qism 3 – 5 minut.
2. Uyga vazifalarni tekshirish va baholash 7 – 10 minut.
3. Asosiy qism yangi mavzu bayoni 10 – 12 minut.
4. Mustaqil ish 15 – 25 minut.
5. Darsni mustahkamlash va uyga vazifa 2 – 3 minut.

Darsning borishi:

1. Salomlashish, sinf o'quvchilarini nazorat qilish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga tayyorgarligini ko'rish, baholashga tayyorlash.

2. O'quvchilarning uy vazifasini baholash.

Xalq amaliy san'ati azaldan turmushini bezash vositasi bo'lib kelgan. Qadimda uylar, masjidlar, madrasalar ana shu san'at turi yordamida bezatilgan va maxsus bo'yoqlarda sopollarda koshinlarga, rangin ipaklar yordamida kashtalarga bitilgan. Bu bezaklarning namunalari hozirga qadar saqlanib qolgan. Bizga zamondan berilgan xalq ustalari va chevarlar bu an'analarni davom ettirmoqdalar. Bu mehnat ta'limiga bog'liq.

Bezakarlar va ularni yaratishning o'ziga xos tuzumi mavjud. Bu obrazli tizim uzida kupgina ma'no va mazmunlarni aks ettiradilar. Masalan, kashtachilikning suzana, palak, dorpech, kashta va joynamoz kabi turlari mavjud. Ularning o'ziga xos maqsadi va vazifalari bor.

Kashtalar, odatda katta o'lchamlarda oddiy yoki rangli matoga ipaklar bilan tikiladi.

Kashtalarning naqsh elementlarida xayvon yoki o'simlik dunyosining ramziy shakli va ma'nolari stilizasiyalashtirilgan xolda qo'llaniladi. O'z-o'zidan ma'lumki, kimyo, mehnat, fizika, matematika fanlariga juda xam bog'lanib ketadi.

O'zbekiston amaliy bezak san'atida soddalashtirish zardevor va palaklarda ham asosan doira shakllarining naqshi elementlari sifatida qo'llanilishida ham o'ziga xos ramziy ma'no bor. Masalan, naqsh elementlarida anor paxta gulli choynak piyola, kosa-tovoqlardan iborat. Anorgul-kulolchilik, miskarlik, kashtachilik, to'qimachilik, naqqoshlikda ko'p ishlatiladi. Bodom-baxt iqbol ramzi sifatida qo'llanilib kelinadi. Kabutar-tinchlik va osoyishtalik, oqgul-baxt iqbol ramzi. Gul, butoq, daraxt kabi samimiy naqshlar ramziy ma'nolarini o'zida mujassam etgan. Masalan, gullagan bog'ning ramzi-xayotning go'zalligi, baxt-farovonlik kabi sifatlarga bog'langan. To'lqinli o'simlik poyasi-tinimsiz ijod va tabiat tarovati,

to'liqlar shiddatli xayot oqimi, gul esa yorug' olam go'zalligi va xakozolarning ramziy ifodalarini anglatadi.

Toshkent naqqoshlik maktabining shakllanishi va rivojlanishiga Yoqubjon Raifov, Toir To'xtaxo'jayev, Jalil Xakimov, Anvar Ilxomov kabi naqqoshlar, Toshpulat Arslonqulov, Maxmud Usmonov, Ortiq Fayzullayev kabi naqsh, ganch va yog'och o'ymakorlarining xizmati katta. Xivada naqqoshlik maktabi vakillarining ijodida yuqorida aytib o'tilgan o'ziga xoslikdan tashqari Toshkent va Xiva naqqoshlik maktablarining an'alarini qo'llash xollari ham uchraydi. Saidmaxmud Norquziyev, Abdug'ani Abdullayev, Asqar Akbarov, Qodirjon Xaydarov kabi ustalar nafaqat O'zbekistonda, balki bir qator chet mamlakatlarda ham o'zlarining noyob san'atlarini namoyon etganlar.

Buxorolik usta Shirish Murodov, Samarqandlik usta Quli Jalilov, usta Shamsiddin Jalilovlar mamlakatimizdagi ko'plab madaniy ma'rifiy binolar qurilishida ishtirok etgan mashhur naqqosh ganch va yog'och o'ymakorlaridandir.

Oddiy naqsh namunalarini chizish.

Naqsh chizish faoliyati asosan naqsh elementlaridan eng oddiy nusxa ko'chirishdan boshlanadi. O'quvchilarni qog'ozda to'g'ri va chiroyli chiziq o'tkazish o'rganishlari chizilgan chiziqning aniq va ravonligiga erishishlari kerak.

Yog'ochga mustaqil naqsh o'yish va gul solish san'ati xamisha ardoqlanib kelingan.

Topshiriq. 1 – variant. Loydan kichik ko'zacha va guldon yasash.

2 – variant. Quticha uchun naqshli kompozitsiyani ishlash.

Material. 1 – variant uchun: qulolchilik uchun yaroqli bo'lgan loy, unga ishlov berish moslamalari va qurollari.

2 – variant uchun: qog'oz, qalam o'chirgich, akvarel va guash bo'yoqlari, muyqalamlar, oldindan tayyorlangan quticha.

Darsning mazmuni. Nazariy amaliy bezak san'atida shakli va mazmuni mutanosibligini kulolchilik misolida taxlil etish. Kulolchilik san'ati tarixi, usta kulollar xaqida muxtasar ma'lumot berish.

O'zbek xalqi amaliy bezak san'ati avvalo shakli va mazmun mutanosibligi bilan go'zaldir. Bu mutanosiblik ganch va yog'och o'ymakorligi, badiiy kulolchilik, amaliy san'atning boshqa turlarida ko'rishimiz mumkin. Necha xumlar aynan loydan tayyorlab undan sopol buyum tayyorgancha ta'lim texnologik jarayonlar bajariladi. Nima uchun ko'zaning konstruktiv tuzilishi shu ko'rinishda xal etilgan? Ular ham shakl jixatidan turli tumanku? Bu turli-tumanlik avvalo ularning funksiyasidan kelib chiqadi. Ko'zalar maishiy turmushning eng qadimiy buyumlari xisoblanadi. O'zbekistonning Tuproqqala, xolchayon, bolalik tepa kabi tarixiy joylarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan. Ularning ayrimlari ming yillar oldin yasalgan. Demak, kulolchilik buyumlari (lagan, kosa, choynak, piyolalar, ko'za va xumlar) ning bizga ma'lum bo'lgan shakllari yillar davomida sayqal topib kelgan. Ular ota onalarimizning yuksak badiiy maxoratidan darak beradi. Ko'za buyumlaridan ota-onalarimiz suv, sharbat, don maxsulotlari, yog' saqlash uchun foydalanganlar ular qanday materialdan (loy, yog'och, temir, jom) tayyorlanganligidan qat'iy nazar ishlatish uchun qulaylik bilan tashqi ko'rinishiga ham e'tibor berilgan.

Shuning uchun ham qulolchilik amaliy san'ati saxnalaridan biri sanaladi.

Darsning turi. Kompozision faoliyat.

Darsning jixozlash.

- a) O'qituvchi uchun: Doska, bo'r, latta, ko'rgazmali materiallar.
- b) o'quvchilar uchun: Guash, akvarel bo'yoqlari, mo'yqalam, suv idish, o'chirg'ich, toza latta.

Darsning taqsimlanishi:

1. Tashkiliy qism 3 – 5 minut
2. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish va baholash 7 – 10 minut.
3. Asosiy qism yangi mavzu bayoni 10 – 12 minut.
4. Mustaqil ish 15 – 25 minut
5. Darsni mustaxkamlash va uyga vazifa 2 – 3 minut.

Darsning borishi:

Darsning maqsadi:

1. Salomlashish. Sinf o'quvchilarini nazorat qilish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga tayyorgarligini ko'rish, baholashga tayyorlash.

2. O'quvchilarni uyga vazifasini baholash. O'quvchilarni chizgan rasmlarini doskaga qo'yib kim yaxshi chizganini aniqlab olamiz. O'tgan mavzular yuzasidan savol-javob bilan mustaxkamlaymiz.

Kompozision faoliyatda fanlararo aloqadorlik.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflardagi butun ta'lim – tarbiya jarayoni yosh avlodda dunyoqarash elementlari tushunchalarini shakllantirish ishiga qaratilgan. Tasviriy san'at darslarni bu tushunchalarni ancha keng ma'noda har tomonlama mazmunli ravishda amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bu fan materiallari Vatanimiz mehnatkashlarining vatan shon-shuxrati yo'lida qilayotgan fidokorona mehnati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Maktablarning 1-4 sinflari uchun programmalarda ko'rsatib o'tilganidek, maktabda tasviriy san'atdan o'tkazilgan mashg'ulotlar quyidagi vazifalarni ko'zda tutadi. – o'quvchilarda tevarak atrofdagi narsa, voqeya – xodisalarga estetik munosabatini tarkib toptirish, xayotga tadbiiq etishga o'rgatish – badiiy amaliy malakalarni shakllantirish;

- o'quvchilarda realistik rasm chizish asoslari xaqida bilim berish, tasavvurdan rasm chizish soxasida ko'nikma va malakalar hosil qilish va boshqalar.

Ma'lumki, o'zlashtirish jarayoni materialni xis etish anglash, bilish va malaka hosil qilish kabilardan iboratdir. Akademik A.P.Pavlov aytganidek, ta'lim aloqa, fikr, tafakur va bilimdan iboratdir.

Rassom chizgan asarlarni kuzatganda, tematik rasmlar chizganda o'quvchilar bu ijod namunalari xayotdan olingan yuzaki nusxa emas, balki ularda ma'lum o'y-fikrlar, xis-tuyg'ular ham ifodalanganligini chuqur xis qilishlari lozim. Sinf uchun tema asosi ishlashning 2–turini tavsiya etishimiz mumkin. 1. Tema asosida rasm chizish. 2. Adabiy asarlar asosida mazmuniga ko'ra rasm chizish (Tabiatshunoslik yuzasidan). Binobarin, 4 sinf tasviriy san'at darslarida

rassomlarimiz N.G.Karaxanning “Oltin kuz”, “Gullagan vodiy”, “Yoz oqshomi”, U.Tansiqboyevning “Jonajon o’lka”, “O’zbekistonda mart”, Z.Inag’omovning “Tog’ yon bag’rida”, “Choyga”, K.Eminovlarning “Cho’lda” kabi asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tabiatshunoslik darsida atrof – muxit bilan tanishtirishda o’qituvchi o’quvchilarni maktab oldi uchastkasida yoki xo’jaliklar bog’iga olib borib, ularni tabiatdagi turli o’zgarishlar xaqidagi tasavvurlarini boyitadi. Agar kuz fasli xaqida gap borsa, bu faslning nixoyatda go’zalligi gapirib beriladi. O’quvchilar ota onalarga, xo’jaliklar ishchilariga yaqindan yordam beradilar. Keyin darsda rassom asarlari yuzasidan o’quvchilar bilan savol javob tashkil etiladi. Masalan, N.G. Karaxanning “Oltin kuz” asari yuzasidan o’quvchilar bilan qisqacha suxbatni tashkil eitish va uni boshqa fanlar bilan bog’lashni quyidagi savol – javob asosida olib borish mumkin.

1. Kartinada qanday joy tasvirlangan? (Qavs ichida qaysi fan bilan bo’lishi mumkinligi ko’rsatilgan). O’quvchi javobi o’lkamizning tog’ manzarasi bilan (Tabiatshunoslik).

2. Kuz ekanligini qanday bilamiz?

- daraxt barglarining sarg’ayib qolganidan.

3. Surat sizga yoqdimi? Ha, surat bizga juda yoqdi. (Tabiatshunoslik) va xakozo.

Keyin o’qituvchi o’quvchilar javobini umumlashtiradi va yangi ma’lumotlar bilan to’ldiradi. Tasviriy san’atning tematik rasm chizish atrof muxit bilan tanishtirish darslarida she’r, xikoya va ertaklar mazmuniga muvofiq rasm chizilganda ham foydalaniladi. Chunonchi, S.Abduqaxorning “Uch jo’ja va o’rdakcha” she’ri asosida. She’r mazmuni bo’yicha savol javob quyidagicha olib boriladi.

1. Jo’jalar soni nechta? – Jo’jalar soni uchta (Matematika).

2. O’rdaklarchi? – o’rdaklar bitta (Matematika).

3. Bu to’rttalasi qayerga bormoqchi edi ? – Ular don qidirib soyning nariga tomoniga o’tmoqchi edilar. (Tabiatshunoslik) va xakozolar.

Savol – javoblar tugagandan keyin, she'r mazmuniga xos ko'rinishi rasm daftarlariga chizish va boshqa sinf o'quvchilari ishlaridan namunalari ko'rsatiladi. Bunday bilim va ko'nikmalarni hosil qilishda televizion ko'rsatuvlar ham muxim rol o'ynaydi. Borliqni idrok etish orqali yil fasllari: qish, yoz, kuz va ularning farqi xaqida ham o'quvchilar muxim bilimlarga ega bo'ladilar. Xulosa qilib aytganda tasviriy san'atning predmetlararo bog'lanishi darslarning samarali bo'lishini ta'minlovchi muxim omillardan biridir. O'qituvchi dasrda uni boshqa predmetlarga qanchalik puxta, o'rinli bog'lasa, bu mashg'ulotlar tag'in ham qiziqarli bo'lib o'quvchilarda kuzatish va muloxaza yuritish, fikrlash malakalarini oshirishga yordam beradi.

UMUMIY XULOSA

Amaliy san'at darslarida predmetlararo bog'lanish masalalarining nihoyatda zarur ekanligini ko'rib chiqdik. Umumiy o'rta ta'lim maktab tasviriy san'at darslarining barcha mavzulari 1 sinfdan 7 sinfgacha ham fanlarga bog'lanib borar ekan.

Fanni o'qitishda uning o'ziga xos bo'lgan tomonlarini yoritib unga yaqin bo'lgan fanlar aloxida keltirib o'tildi. Ularning yo'nalishlari, akvarelda surat ishlash bilan tabiat, narsalar, kimyoviy moddalar, o'simliklar, xayvonlar to'g'risida ham ma'lumotlar olish mumkinligi keltirib o'tildi.

Ishning asosiy qismida dars ishlanma tarzida predmetlar bilan bog'liqlik jihatlari kengroq berish kerakligini bilib olish mumkin bo'ladi.

Eng asosiysi kompozisiya ishlash davomida fanlarga bog'liqlik yanada yaxshi boradi. Bunda portretchi, rassomlar, xaykaltaroshlar, amaliy san'atga oid bo'lgan mavzularda fanlararo aloqadorlik mavzulari keltirib o'tildi. Rassomlar chizgan har qanday asarni biron fanga bog'lab olib borish mumkin ekan.

Agar amaliy san'at fani o'qituvchilari fanlararo aloqadorlikni doimo birga olib borsalar uni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Kollej tasviriy san'at programmasida fanlarga bog'lanish masalasi berilmasada uni barcha fan o'qituvchilari qo'shib olib borishlari zarurligini unutmashliklari lozim.

Yuqorida aytilgan fikrlar xalq amaliy san'atidagi fanlararo uzviy bog'lanishlar ta'lim samaradorligini oshirishdagi muxim omil ekanligini ko'rsatadi. Bilamizki, bitta darsni birdaniga hamma fanlar bilan bog'lab o'tib bo'lmaydi, balki o'rganilayotgan mavzuga mos keluvchi tushuncha va ma'lumotlarni tanlab olib, zarur paytda ulardan foydalaniladi. Shuningdek, xalq amaliy san'ati darslarida boshqa fanlar, jumladan chet tili, iqtisod kabi fanlardagi tushunchalardan ham keng foydalanish mumkin, biroq aytib o'tilgan bu ishlarni birgina xalq amaliy san'at o'qituvchisining o'zi uddalay olmaydi. Amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlarni barcha fan o'qituvchilari birgalikda amalga oshirishi kerak bo'ladi. Buning uchun o'quv yili boshida maktabda yoki kolleжда o'qitiladigan fanlarning o'qituvchilari o'zaro kelishilgan holda yakdil bo'lib birgalikda o'quv rejasi tuzishlari, qilinajak va bajarilgan ishlari yuzasidan pedagogik kengashlarida, metodik birlashmalarning yig'ishlarida hisobot berib turishlari, o'zaro tajriba almashib borishlari zarur.

Taklif va tavsiyalar.

Tasviriy va amaliy san'at darslarida fanlararo bog'lanishni yaxshi amalga oshirish uchun qo'yidagilarni tavsiya etamiz:

- Tasviriy san'atning hamma tur va janrlari ijtimoiy borliq bilan xamnafas rivojlanishda boradi. Bunga tabiatga bog'liq bo'lgan fanlar asosdir. Shuni bir-biri bilan bog'lagan xolda o'qituvchi darslarini olib borsa katta yutuqlarga erishishi mumkin;

- Kollejlarning tasviriy va amaliy san'at darslarida san'at tarixini o'rganish dars soatlari ham bor. Bu darsni qadimgi dunyo tarixi, o'rta asrlar tarixi, yangi tarix kabi fanlar ishtirokida olib borish kerak;

- Tasviriy san'at asarlarining hammasi go'zallikni targ'ib etishga asoslangan, nafis san'atdir. Bu o'z-o'zidan nafosat, go'zallik, badiiylik kabi tushunchalarni kundalik turmushga bog'laydi. Shundan tasviriy va amaliy san'at ham nazariy, ham amaliy jihatdan xayot bilan bog'lanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. T. "Sharq" nashriyoti, 1997y.
2. I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 1997. -132 b.
3. Xasanov R. "Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi", T."Fan".2004y.
4. "Ta'lim to'g'risida" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 1997 y. Davlat ta'lim standartlari. 1999 yil
5. O'zbekiston san'ati. H. Karamatov. N.Jo'rayev va b. avtorlar jamoasi. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. 2001 y.
6. Mehnat ta'limi darslarida fanlararo bog'lanishlar. (uslubiy qullanma) I. Karimov, B. Olimov, Z. Abduraxmonova. Toshkent. 2008.
7. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. O'quv uslubiy qullanma.Toshkent. «Mehnat» 1991 yil.
8. M.Aminov, H.Boboyev va b. O'zbekiston milliy ensklopediyasi. T.: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat milliy nashriyoti 2000. -736 b.
9. Ergashev D. va boshqalar. Tasviriy san'at darslarida predmetlararo bog'lanishlar. Xalq ta'limi, 1987 yil 2 – son.
10. Ergashev D. 1–4 sinf tasviriy san'at darslarida predmetlararo bog'lanishlar. Maktabda ta'lim muammolari. Yig'ma materiallar. Toshkent. 1991y.
11. Tasviriy san'at dasturi. 1–4 sinf. 2004 y.
12. Tasviriy san'at dasturi. 5–7 sinf. 2004 y.
13. O'zbekiston san'ati. (1991–2001 yillar) T. "Sharq" 2001 y.

14. Xasanov R. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. T. O'qituvchi. 1987 y.

Internet saytlari

1. www.ziyo.net
2. www.edunet.uz
3. www.bilimdon.ru.
4. www.bilimdon.uz.
5. www.technol.student.ru

ILOVALAR




Tuya va butaloq. (A.Muxtorov 1975)



Nosqovoqlar (1920-30 yillarda Samarqand)



Obdasta (19-a. 2-yarmi, Qo'qon)




So'zana (19-a. oxiri Jizzax)



Zardevor (20 a. boshi Jizzax)



Yog'och vazalar. Bo'yama naqqoshlik



Bilaguzuklar: a-; b-Samarqand (19 a.); v-; g-Buxoro (19 a.)



Do'ppi. 1. Marg'ilon do'ppi. 2. Shahrizabz do'ppi. 3.5. Iroqi do'ppi.
4. Boysun do'ppi. 6. Zardo'zi do'ppi.